جديد

Tilda, fikrda, ishda birlik!


# Jadid

adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

2026-yil 18-sentyabr
№ 38 (142)
www.jadid.uz

@Jadidrasmiy @Jadidmediauz @Jadidrasmiy @Jadid_uz

## ODIL OG‘ANING ARMONI



**“Odil Yoqubov necha yuz yillardan keyin ham qancha-qancha avlodlarimizga suyukli bo‘lib qoladi. Kitoblari o‘qiladi, – degan edi Abdulla Oripov. – Chingiz Aytmatov “Ulug‘bek xazinasi”ni o‘qib, unga yozgan xatining o‘zi nomini abadiylashtirib qo‘ydi. Qani, yana kimga shunday xat yozgan?! ...”**

*(3-sahifada o‘qing).*

## FAKT

- **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Koreya Respublikasi Milliy Assambleyasi Spikeri Cho Chjon Shik uchun koreys tiliga tarjima qilingan “Mirziyoyev doktrinasi” kitobiga dastxat yozib berdi.**
- **“Markaziy Osiyo – Koreya Respublikasi” formatidagi birinchi sammit doirasida O‘zbekiston Respublikasi Birinchi xonimi Ziroat Mirziyoyeva Koreya Respublikasi Birinchi xonimi Kim Xe Gyon va Qirg‘iz Respublikasi Birinchi xonimi Aygul Japarova bilan birgalikda “Chong Va De” qarorgohida o‘tkazilgan madaniy dasturda ishtirok etdi.**
- **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari Saida Mirziyoyeva Yangi Toshkent hududida bo‘lib, zamonaviy bino va inshootlar qurilish jarayoni bilan tanishdi.**
- **UN-Water 2026-yilda O‘zbekistonni suv tejashda sezilarli natijalarga erishgan mamlakatlar qatoriga kiritdi.**

YETTIKUNLIK

# MUVOFIQLASHTIRUVCHI KO‘PRIK

**Ortda qolayotgan hafta mamlakatimiz siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotida nihoyatda sermazmun, tarixiy voqealarga boy bo‘ldi. Ichki siyosatda poytaxtni rivojlantirish va mahallalarni obod qilishning yangi modeli belgilab olingan bo‘lsa, tashqi siyosatda Janubiy Koreya bilan 12 milliard dollarlik texnologik alyansga poydevor qo‘yildi.**

**Sport sohasida esa azim Samarqand dunyo shaxmat sportining global markaziga aylandi.**






### POYTAXT TRANSFORMATSIYASI

Juma kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida Toshkent shahrining ijtimoiy-iqtisodiy rivoji, bandlik va mahallalar infratuzilmasini tubdan yangilash masalalari atroflicha muhokama qilindi.

Yig‘ilishda ta’kidlanganidek, poytaxt tumanlari o‘z salohiyatidan kelib chiqib, aniq yo‘nalishlarga ixtisoslashadi. Sergeli, Yangihayot va Bektemir – yirik logistika majmualariga, markaziy tumanlar – zamonaviy biznes va moliyaviy markazlarga, Olmazor, Chilonzor va Uchtepa – ta’lim, tibbiyot, savdo va servis sohalariga ixtisoslashadi.

Joriy yilda Toshkentga 9 milliard dollar, kelgusi yilda esa 10 milliard dollar investitsiya jalb qilish hamda 150-200 mingtagacha yuqori daromadli ish o‘rni yaratish maqsad qilingan. Buning uchun investorlar muammolarini joyida hal etishning yangi tizimi joriy etiladi.

Respublika va shahar mas’ullari har hafta tumanlarga chiqib, tadbirkorlar bilan uchrashadi.

Olmazor tumanidagi Qichqiriq mahallasida amalga oshirilgan kompleks obodonlashtirish (bog‘cha, sayilgoh, favvoralar, 2,5 km soybo‘yi ekosayilgohi) yuqori baholandi. Endilikda ushbu tajriba asosida poytaxtimizdagi 100 ta ko‘chani yangilashga 1 trillion so‘m ajratiladi. 400 ta mahallani obod qilish bo‘yicha 4 yilga mo‘ljallangan 10 trillion so‘mlik dastur amalga oshiriladi. Bo‘zsuv kanali bo‘ylab 20 kilometrlik uzluksiz piyodalar yo‘lagi barpo etiladi.

Biznesni qo‘llab-quvvatlash maqsadida garovsiz kredit limiti 100 million so‘mdan 200 million so‘mga oshirildi. Olmazordagi “Miskin” va “Ibrohim ota” sanoat zonalarida ish o‘rinlari 100 mingtaga, eksport 600 million dollarga yetkaziladi. Bu Davlatimiz rahbarining tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, yangidan yangi ish o‘rinlari yaratish, kambag‘allikni qisqartirish borasidagi tizimli siyosati izchil davom ettirilayotganini namoyish etadi.

Mamlakatimizda ilmu fanga va, tabiiyki, uning kelajagi bo‘lgan talaba yoshlarga alohida e’tibor qaratilgan. Jumladan, 18 ming talaba istiqomat qiladigan Talabalar shaharchasidagi 41 ta yotoqxona uchun alohida Direksiya tashkil etiladi. Talabalar shaharchasidagi Vaziyatlar markazi orqali raqamli nazorat tizimi yo‘lga qo‘yilib, bu tajriba butun mamlakatga ommalashtiriladi.

1,5 million aholi harakatlanadigan poytaxtda tirbandlikni faqat yo‘lni kengaytirish bilan emas, intellektual transport tizimlarini joriy etish orqali hal etish belgilandi.

### SEULDAGI TARIXIY SAMMIT

Davlatimiz rahbarining 13-16-sentyabr kunlari Koreya Respublikasiga davlat tashrifi va birinchi “Markaziy Osiyo – Koreya Respublikasi” sammitidagi ishtiroki Sharqiy Osiyo yo‘nalishidagi diplomatiyamizni eng yuqori cho‘qqiga olib chiqdi.

Seulda Koreya Prezidenti Li Chje Myon va Bosh vazir Xan Son Suk bilan o‘tkazilgan muzokaralar, shuningdek, 300 dan ortiq yirik biznes vakillari (Samsung, Hyundai, Lotte, SK va b.) ishtirokidagi biznes forumda juda katta kelishuvlarga erishildi. Ayniqsa, 12 milliard dollarlik investitsiya portfeli shakllantirilgani va Koreya Eksimbanki bilan Strategik hamkorlik dasturi qabul qilingani yaqin tarixdagi eng muhim voqealardan biri bo‘ldi.

*(Davomi 2-sahifada).*

BUGUNNING GAPI

**O‘zbek tili – raqamli dunyoda ilm va texnologiya yaratiladigan til bo‘lishi lozim.**

**Shavkat MIRZIYOYEV**

# TIL VA TEXNOLOGIYA

**Bugungi shiddatli raqamlashish va sun’iy intellekt (AI) asrida tillar nafaqat yolg‘iz muloqot vositasi, balki strategik kuch, ilmiy-texnologik raqobat omiliga aylandi. Globallashuv jarayonida o‘z raqamli ekotizimi, ilmiy bazasi va texnologik jozibadorligiga ega bo‘lmagan tillar iste’moldan chiqib ketish xavfi ostida qolmoqda.**

Shu bois, o‘zbek tilini davlat tili maqomidagi ijtimoiy muloqot vositasidan raqamli dunyoda ilm va texnologiya yaratiladigan til darajasiga ko‘tarish – milliy xavfsizlik, suverenitet va kelajak avlodlar oldidagi eng ustuvor vazifamizdir. Zero, o‘z tilida ilm yaratmagan millat boshqalar yaratgan texnologiyalarning qaram foydalanuvchisi bo‘lib qolaveradi. Sun’iy intellekt va katta til modellari dunyoni boshqarayotgan davrda o‘zbek tili ham bu tizimlarga mukammal uyg‘unlashtirilmasa, raqamli boshqaruv va axborot makoni ustidan nazorat yot madaniyatlar qo‘liga o‘tishi mumkin.

Bugungi kunda dunyodagi yetakchi axborot tizimlari (masalan, OpenAI, Google yoki Anthropic modellari) asosan ingliz tilidagi va g‘arb dunyoqarashiga xos bo‘lgan katta ma’lumotlar bazasi (Big Data) asosiga qurilgan. Agar sun’iy aql o‘zbek tilini, ulus tarixi va milliy qadriyatlarini xorij manbalari asosida o‘rgansa, u o‘zbek foydalanuvchisiga ma’lumot uzatishda o‘sha yot madaniyatlarning fikrlash tarzi, axloqiy qarashlari va siyosiy g‘oyalarini singdira boshlaydi. Milliy kontent va raqamli til bazasi yetarli bo‘lmagan taqdirda, sun’iy aql o‘zbek tilidagi so‘rovlarga ingliz yoki rus tilidagi mantiq va madaniyatni shunchaki “so‘zma-so‘z tarjima” ko‘rinishda o‘girib javob beradi. Bu esa kelajak avlodning milliy o‘zlikdan uzilib, global raqamli qoliplar asosida fikrlashiga olib keladi.

Raqamli dunyoda kontentni boshqarish, qidiruv natijalarini saralash va ijtimoiy tarmoqlardagi axborot oqimini neyrotarmoqlar nazorat qiladi.

*(Davomi 2-sahifada).*

VATAN MANZUMASI



# JADIDLAR O‘LMAYDI, JADIDLAR TIRIK!

**Behbudiy dars berar, qarang, bugun ham,**
**Avloniy ta’limda hamon peshqadam,**
**Qodiriy yoshlarga tutmoqda qalam –**
**Jadidlar o‘lmaydi, jadidlar tirik…**

**Fitratning so‘zi bor fitratimizda,**
**Ibratning o‘zi bor ibratimizda.**
**Munavvar qorining qudrati bizda –**
**Jadidlar o‘lmaydi, jadidlar tirik…**

**Hech kim unutmagan Usmon Xo‘jani,**
**Fayzulla Xo‘jalar o‘sgan go‘shani,**
**Abadiy mustaqil ekan Vatani –**
**Jadidlar o‘lmaydi, jadidlar tirik…**

**Cho‘lpon-u Tavallo, Elbekdan so‘rang,**
**Ne uchun qildilar zolim bilan jang?**
**Bugungi yoshlarning ko‘ziga qarang –**
**Jadidlar o‘lmaydi, jadidlar tirik…**

**Temur XO‘JA**
*9-sentyabr 2026-yil*

SUHBAT

# “XAYBAR–25”DA NIMA GAPLAR?



*“Xaybar–25” nashriyoti o‘tgan yili o‘zining ilk mahsuloti – yozuvchi Xayriddin Sulton qalamiga mansub “Yaldo kechasi” romanining nashri bilan kitobxonlar va keng jamoatchilik e’tiborini qozondi. Xo‘sh, o‘tgan davr mobaynida nashriyot faoliyatida qanday o‘zgarishlar yuz berdi? Ijodiy jamoa bugun qanday yangi loyihalar ustida ishlamoqda va uning kelajak rejalari nimalardan iborat?*


*Muxbirimiz Otabek Baxtiyor ana shunday savollar bilan nashriyot bosh muharriri Shuhrat Sohibovga murojaat qildi.*

*(Davomi 3-sahifada).*

TARIX SABOG‘I

# XORAZM JADID MAKTABLARI

*Xorazm Ma’mun akademiyasi katta ilmiy xodimi, tarix fani bo‘yicha falsafa doktori, “Do‘stlik” ordeni sohibi Umid BEKMUHAMMAD bilan suhbat*



**– Qadim Turkistonning nisbatan chekka hududi – XIX asr ikkinchi yarmi va XX asrning boshida jug‘rofan “markazdan uzilib qolgan xonlik”ka jadid harakati kirib kelishi va ishni aynan maktablar tashkil qilishdan boshlashlari e’tiborli holat. Ta’lim sohasidagi bu jarayon qanday boshlangan?**

*(Davomi 4-sahifada).*

# MUVOFIQLASHTIRUVCHI KO‘PRIK

Boshlanishi 1-sahifada.

Shuningdek, O‘zbekiston – Koreya sanoat-texnologik alyansi tuzildi.

Koreyaning ilg‘or texnologiyalari va O‘zbekistonning resurslariga asoslangan mustahkam innovatsion va texnologik alyansni barpo etish bo‘yicha erishilgan kelishuv, ayniqsa, ushbu alyansning ustuvor yo‘nalishlari etib axborot texnologiyalari, sun’iy intellekt, kiberxavfsizlik, tibbiyot va farmatsevtikada raqamli yechimlarni joriy etish belgilangani har ikki mamlakat manfaatlariga xizmat qiladi.



Davlatimiz rahbari tomonidan Koreya Respublikasi bilan hamkorlikni yanada kengaytirishning beshta ustuvor yo‘nalishi – savdo aloqalarini har tomonlama kengaytirish, to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalar hajmini oshirish, muhim minerallar (noyob yer metallari) sohasida uzoq muddatli sanoat zanjirini yaratish, transport-logistika aloqalarini diversifikatsiya qilish va infratuzilmaviy loyihalarni jadal amalga oshirish belgilab berildi. Ushbu muhim an’ananing keyingi manzili sifatida Samarqand shahri belgilangani alohida ramziy va amaliy ahamiyatga ega.

Tashrifning eng ta’sirli va muhim voqealaridan biri – Yurtboshimizning Seulda tahsil olayotgan va mehnat qilayotgan vatandoshlarimiz, yosh talabalarimiz bilan shaxsan uchrashib, ochiq suhbat qurganlari bo‘ldi. Prezidentimizning yoshlarimiz tahsili va kelajak rejalari bilan samimiy qiziqqani, Janubiy Koreyada egallanayotgan zamonaviy bilim va tajriba Yangi O‘zbekiston ravnaqi va xalqimiz farovonligiga xizmat qilishiga bildirgan ishonchi butun ilm-fan ahliga va xorijdagi yoshlarimizga ulkan ruh va g‘ayrat bag‘ishladi.

Ikki mamlakat yetakchilarining muloqotida O‘zbekiston Respublikasi va Koreya Respublikasi o‘rtasidagi investitsiyalar va savdo hajmi sezilarli darajada ortayotgani alohida ta’kidlandi. 2026-yil boshidan buyon O‘zbekiston va Koreya Respublikasi o‘rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 12 foizga ko‘paydi, yurtimiz iqtisodiyotiga jalb etilgan Janubiy Koreya investitsiyalarining umumiy hajmi esa 8 milliard dollardan oshdi. Biroq hamkorlikni yanada rivojlantirish imkoniyati katta.

Ikki davlat o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashga turtki beruvchi kuch – ularning bir-birini to‘ldira olish salohiyatidir. Janubiy Koreya yuqori texnologik rivojlanish darajasiga, O‘zbekiston esa nafaqat boy tabiiy resurslar va foydali qazilmalarga, balki yuqori malakali kadrlarga ega.

Mamlakatlarimiz yetakchilari o‘ta muhim foydali qazilmalarni birgalikda qidirish va o‘zlashtirish, yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish, shuningdek, ularni Janubiy Koreya, YI davlatlari va boshqa mamlakatlarga eksport qilish masalalarini faol muhokama qilgani e’tiborga molik.

Ikki davlat rahbari tomonidan 2027-yilning “Madaniyat va o‘zaro almashinuvlar yili” deb e’lon qilinishi xalq diplomatiyasi va ma’rifiy aloqalarni yanada mustahkamlaydi. Ma’lumki, O‘zbekiston va Janubiy Koreya xalqlarini qadimiy do‘stlik rishtalari bog‘lab turadi. Ikki xalqning madaniyati, mentaliteti o‘xshash. Taqdir taqozosi bilan yurtimizga kelib qolgan koreyslar o‘zbeklar bilan do‘st-birodar bo‘lib ketgan, jamiyatimizning faol a’zolariga aylangan. Koreys millatiga mansub yurtdoshlarimiz Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatida, mahalliy Kengashlarda, boshqaruv organlarida, iqtisodiy-ijtimoiy hayotning barcha sohalarida faoliyat yuritayotir. Davlatlarimiz o‘rtasidagi do‘stona munosabatlarni qo‘llab-quvvatlash hamda xalqlarimizni yanada yaqinlashtirishda ko‘p sonli koreys diasporasi muhim rol o‘ynaydi.

O‘zbekiston o‘z oldiga kuchli demokratik, ilg‘or rivojlangan davlatlar safidan mustahkam o‘rin egallashni maqsad qilgan. Dunyoning rivojlangan 50 mamlakati qatoriga kirish – bosh vazifa. Bu boradagi islohotlar ham xalqimizga munosib sharoit yaratib berish maqsadida amalga oshirilyapti.

Bunda Janubiy Koreyaning tajribalaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

Uning elektron hukumat, raqamlashtirish, xavfsiz va aqlli shahar yaratish, oliy ta’lim, maktabgacha ta’lim sohalaridagi yutuqlari beqiyos. Prezidentimizning Janubiy Koreyaga davlat tashrifi nafaqat erishilgan natijalarni mustahkamlaydi, balki yashil energetika, yarimo‘tkazgichlar klasterlarini rivojlantirish, noyob yer metallarini birgalikda qazib olish va innovatsion loyihalar bo‘yicha yangi bosqichni boshlab beradi. Koreyaning texnologik intellekti va moliyaviy resurslari hamda O‘zbekistonning tabiiy, demografik va tranzit salohiyati birlashganda, ikkala davlat ham ortib borayotgan global inqirozlar sharoitida o‘zining iqtisodiy barqarorligini yanada kuchaytira oladi.


Sammit yakunida tarixiy Seul deklaratsiyasi qabul qilindi. Deklaratsiya shunchaki yakuniy hujjat emas, balki keyingi yillar uchun “yo‘l xaritasi” vazifasini bajaradi. Ushbu tarixiy hujjatda Markaziy Osiyo beshligi va Koreya Respublikasi o‘rtasidagi sammitlarni muntazam institutsional tuzilmaga aylantirish, muhim xomashyo bo‘yicha xavfsiz ta’minot zanjirini shakllantirish bo‘yicha ko‘p tomonlama memorandumlarni mustahkamlash, yoshlar va kadrlar tayyorlash, muhandislik hamda IT sohalarida birgalikda ta’lim platformalarini yaratish bo‘yicha majburiyatlar aks etgan.

O‘zbekiston Markaziy Osiyoning demografik va geografik yuragi bo‘lib, mintaqadagi barcha to‘rtta davlat bilan umumiy chegaraga ega. Shu bois Seul bilan ko‘p tomonlama aloqalarda O‘zbekiston asosiy “muvofiqlashtiruvchi ko‘prik” vazifasini o‘taydi.

## SAMARQAND – SHAXMAT DUNYOSI POYTAXTI

Azim va ko‘hna Samarqand shahri yana bir global anjumanga mezbonlik qilmoqda. Shavkat Mirziyoyev 46-Butunjahon shaxmat olimpiadasi, 3-Parashaxmat olimpiadasi va 97-FIDE kongressi ishtirokchilariga samimiy tabrik yo‘lladi. Tabrikda ta’kidlanganidek, shaxmat yurtimizda chuqur ildizlarga ega. Sohibqiron Amir Temur shatranjga mehr qo‘ygani haqida tarixiy dalolat bor. Bobokalonlarimiz Xorazmiy, Beruniy, Navoiy va Bobur o‘z asarlarida bu jozibali o‘yinni tafakkur qayrog‘i deb baholagan.

Yangi O‘zbekistonda shaxmat bilan ommaviy shug‘ullanuvchilar 2 milliondan oshdi, 6 ming professional shaxmatchi va 32 nafar xalqaro grossmeyster bor. Erkaklar terma jamoamiz FIDE reytingida 8-o‘ringa,




ayollar jamoasi 20-o‘ringa ko‘tarildi.

Javohir Sindorovning Jahon kubogini qo‘lga kiritgani va Nodirbek Abdusattorovning jahon chempionatidagi kumush medali milliy shaxmat maktabimizning yuksak salohiyatini ko‘rsatmoqda. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, **“Bugungi olimpiada dunyo yoshlariga muhim bir haqiqatni namoyon etmoqda: insoniyatning umumiy kelajagi kuch emas – aql va bilim, adovat emas – do‘stlik va hamjihatlik, befarqlik emas – ezgu maqsadlar yo‘lidagi qat’iyat asosida bunyod etiladi”.**

* * *

Ortda qolayotgan hafta voqealari shuni ko‘rsatdiki, Yangi O‘zbekiston ichki islohotlar va tashqi siyosatda yagona, puxta o‘ylangan strategik yo‘ldan bormoqda. Poytaxt mahallalaridagi “Qichqiriq” modelidan tortib, Seuldagi 12 milliardlik sanoat alyansi va Samarqandda 200 dan ortiq mamlakat shaxmatchilarining jamlanishi – bularning bari yagona buyuk maqsadga – mamlakatimiz taraqqiyoti, xalqimiz farovonligi va inson kapitalini yuksaltirishga xizmat qilajak.

**Iqbol MIRZO**

# TIL VA TEXNOLOGIYA

Boshlanishi 1-sahifada.

Shu jihatdan, agar global algoritmlar o‘zbek tilining asl mazmunini, matni va milliy mentalitetning nozik jihatlarini mukammal tushunmasa, ular bizning axborot makonimizda qaysi yangiliklar tarqalishi yoki to‘sib qo‘yilishini o‘z mezonlari asosida hal qiladi. O‘z tilida sun’iy aql modellariga ega bo‘lmagan millat o‘z kibermakonida sodir bo‘layotgan raqamli jarayonlarni boshqara olmaydi. Bu esa axborot makoni ustidan nazoratni butunlay chet el texnogigantlari ixtiyoriga topshirib qo‘yish bilan barobardir. Zamonaviy davlat boshqaruvi, bank tizimi, ta’lim va tibbiyot yaqin yillarda to‘liq sun’iy intellekt agentlari boshqaruviga o‘tadi. Demak, davlat va jamiyat boshqaruvi uchun ishlatiladigan AI tizimlari o‘zbek tilida algoritmik fikrlay olmasa, biz har bir raqamli xizmat, dastur va tizim uchun xorijiy korporatsiyalarga moliyaviy va siyosiy jihatdan qaram bo‘lib qolamiz.

Mahalliy startaplar va dasturchilar o‘z tilida mukammal ishlaydigan milliy axborot bazasiga ega bo‘lmasa, ular xorij tizimlarining ijarachisiga aylanadi. Bu esa milliy intellektual mulk, aql egalari va kapitalning doimiy ravishda chetga chiqib ketishini ta’minlaydi. Inson faqat o‘z ona tilida fikrlagandagina, eng murakkab kashfiyotlarni, kreativ g‘oyalar va noyob yechimlarni o‘ylab topa oladi. Ilmni o‘z tilimizda yaratish ta’lim sifatini keskin oshiradi.

O‘zbek tilini axborot texnologiyalari tizimlariga integratsiya qilish – bu, shunchaki lingvistik yoki texnik vazifa emas, bu davlat mustaqilligi va xavfsizligi masalasidir. Til global algoritmlar tizimida o‘z o‘rnini topmas ekan, kibermakondagi chegaralarimiz ochiq qolaveradi. Biz raqamli dunyoda o‘z madaniyatimiz va axborot muhitimizni asrab qolmoqchi bo‘lsak, sun’iy intellektni o‘zbek tilida fikrlashga, baholash va yaratishga majbur qiladigan milliy raqamli infratuzilmani bugundan boshlab qurishimiz shart. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz besh yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimda bu masalaga alohida strategik vazifa o‘laroq e’tibor qaratganining zamirida ana shu asoslar yotibdi.

O‘zbek tilini raqamli dunyoda yetakchi tilga aylantirish xomxayol emas. Bu borada biz uchun ulgi olishga arzigulik tajriba yo‘llari bor. Jahon tajribasida o‘z milliy tilini global texnologiya va innovatsiyalar tili darajasiga ko‘targan davlatlar mavjud. Ayniqsa, Janubiy Koreya va Isroil davlatlarining o‘z milliy tillarini ilm-fan va yuqori texnologiyalar tiliga aylantirish bo‘yicha muvaffaqiyatli yo‘li milliy tillar uchun nihoyatda muhim hisoblanadi.

Janubiy Koreya o‘z milliy alifbosi Xangil tizimini raqamli asrga moslashtirish orqali ulkan texnologik inqilobni amalga oshirdi. Koreyaliklar Google yoki Yahoo tizimlariga qaram bo‘lib qolmaslik uchun o‘z tillarida mukammal ishlaydigan Naver qidiruv tizimi va Kakao raqamli ekotizimini yaratdilar. Bugungi kunda Naver sun’iy aql va katta til modellari sohasida o‘zbek tili uchun ham namuna bo‘la oladigan milliy baza hisoblanadi. Davlat tomonidan eng murakkab muhandislik, robototexnika va mikroelektronikaga oid qo‘llanmalar, xalqaro ilmiy maqolalar zudlik bilan koreys tiliga tarjima qilindi va raqamlashtirildi. Natijada koreys



yoshlari o‘z ona tilida dunyodagi eng ilg‘or texnologiyalarni o‘rganish va yaratish imkoniyatiga ega bo‘ldilar.

Isroil tajribasi esa yuzyilliklar davomida faqat diniy matnlarda saqlanib qolgan, zamonaviy ilmiy atamalardan yiroq bo‘lgan tilni dunyoning eng ilg‘or startaplar tiliga aylantirish mumkin ekanini ko‘rsatdi. Isroilda davlat darajasida faoliyat yuritadigan Ibroniy tili akademiyasi kiberxavfsizlik, harbiy texnologiyalar, biotexnologiya va sun’iy aql sohasida paydo bo‘layotgan har bir yangi xalqaro atama uchun zudlik bilan ibroniycha muqobil yoki moslashtirilgan shaklni yaratib beradi. Isroilning Unit 8200 bo‘linmasi dunyodagi eng qudratli kiberxavfsizlik hamda elektron razvedka markazlaridan biridir. Bu bo‘linma shunchaki harbiy tuzilma emas, balki Isroilning yuqori texnologiyalar va startaplar mamlakatiga aylanishining asosiy poydevori va aqliy manbayi hisoblanadi. Shuningdek, eng yetakchi Isroil texnologiyalar institutida murakkab dasturiy algoritmlar, harbiy texnologiyalar va tadqiqotlar ibroniy tilida olib boriladi. Bu esa ibroniychaning zamonaviy kodlash va muhandislik dunyosi bilan to‘liq integratsiyalashuvini ta’minlagan.

Bu ikki davlat tajribasi bir haqiqatni anglatadi. Texnologiya tili bo‘lish uchun global til, masalan, ingliz tili bo‘lishi shart emas. Buning uchun milliy tilning raqamli infratuzilmasini yaratish, uni sun’iy aqlga o‘rgatish va davlat darajasida ilmiy kontentni milliylashtirishning o‘zi yetarli. Bizning nazarimizda, o‘zbek tilini global raqamli maydonda yetakchi tillardan biriga aylantirish uchun quyidagi strategik yo‘nalishlarga jiddiy e’tibor qaratish va davlat darajasida tizimli ishlarni amalga oshirish kerak bo‘ladi.

Milliy korpus va sun’iy aql bazasini kengaytirish birinchi navbatdagi masala sanaladi. Chunki texnologiya va sun’iy aql matn hamda ma’lumotlar (big data) bilan oziqlanadi. ChatGPT, Gemini kabi global tizimlar o‘zbek tilini mukammal tushunishi va unda murakkab kodlar yoza olishi uchun millionlab so‘zlardan iborat Milliy matnlar korpusini yaratish va ochiq ma’lumotlar bazasiga joylashtirish kerak. Shuningdek, raqamli nutq texnologiyalarini kuchaytirish zarur. O‘zbekcha ovozli buyruqlarni tushunadigan va ko‘p ming soatlik audiobazani nutqni matnga, matnni nutqqa aylantiradigan sifatli algoritmlarni ishlab chiqish dolzarb masala sanaladi. Hozirda sun’iy aql o‘zbek talaffuzini tanishda oqsaydi.

Zamonaviy ilmiy-texnologik atamalarni shakllantirish ham nihoyatda muhim. Tilda yangi texnologiyalarni ifodalaydigan so‘zlar bo‘lmasa, u tilda texnologiya yaratib bo‘lmaydi. IT, biotexnologiya, nanotexnologiya, yadro fizikasi va kosmik tadqiqotlar sohasidagi xalqaro atamalarni o‘zbek tiliga moslashtirish yoki to‘g‘ri qabul qilish tizimini tezkor ishlab chiqish lozim. Matnlarda sun’iylikdan qochish va ilmiy muomalada qulay va tushunarli bo‘lishiga e’tibor qaratish to‘g‘ri bo‘ladi.

Ilmiy matnlarni raqamlashtirish va ochiq manbalarga joylashtirish ham zarur masala. Dunyo ilm-fani o‘zbek tilida so‘zlashishi, o‘zbek olimlari esa o‘z tilida dunyoga chiqishi kerak. Jahonning eng nufuzli ilmiy jurnallari, Wikipedia maqolalari va texnologik qo‘llanmalarini o‘zbek tiliga tarjima qilish hajmini yuzlab barobarga oshirish lozim. Mahalliy olimlarimizning ilmiy ishlari, dissertatsiyalari va ixtirolarini raqamlashtirib, internetda ochiq va qidiruv tizimlari topa oladigan shaklda joylashtirish shart.

Axborot texnologiyalari va dasturlashning o‘zbek tilidagi ekotizimini yaratish ham o‘ta dolzarb masalalardan biridir. Birinchi galda dasturchilar va muhandislar avlodini o‘z tilimizda tarbiyalashimiz zarur. Dunyoda eng ommabop bo‘lgan dasturlash tillari (Python, JavaScript, Go) ma’lumotlar bazalari va bulutli texnologiyalarning rasmiy texnik hujjatlarini va eng nufuzli onlayn kurslarni (Coursera, edX) o‘zbek tiliga tizimli tarjima qilish va raqamli platformaga joylashtirish hamda o‘zbek tilida kodlash qo‘llanmalari va ochiq kodli loyihalarni ko‘paytirish ham kerak bo‘ladi.

O‘zbek tilida texnologiyalar yaratayotgan mutaxassislarni iqtisodiy va huquqiy rag‘batlantirish masalasi ham muhim. Dasturiy mahsulotlarni, raqamli xizmatlarni birinchi bo‘lib o‘zbek tilida taqdim etadigan startaplar va kompaniyalarga soliq imtiyozlari yoki grantlar ajratish hamda ularni har jihatdan qo‘llab-quvvatlash kerak. Davlat subsidiyalari hisobidan o‘zbek tilida mukammal ishlaydigan milliy qidiruv, xarita va sun’iy aql yordamchilarini (Janubiy Koreyaning Naver tajribasi asosida) yaratuvchi mahalliy kompaniyalarga grantlar ajratib rag‘batlantirish zarur. Shuningdek, O‘zbekiston bozoriga kirib kelayotgan har qanday xorijiy raqamli mahsulot, maishiy texnika, operatsion tizimlar (masalan, Apple, Microsoft, Google) va dasturiy ta’minotlarning (avtomobillar multimediasi, smart-uy tizimlari) to‘liq va sifatli o‘zbekcha interfeysga ega bo‘lishi talabini huquqiy jihatdan mustahkamlash lozim.

Biz asrlar davomida o‘zbek tilining naqadar boy, jozibali va tarovatli ekanini, uning badiiy adabiyotdagi betakror imkoniyatlarini Navoiy g‘azallari-yu, Bobur tuyuqlari bilan isbotlab keldik. Bu, shubhasiz, milliy faxrimiz va ma’naviy xazinamizdir. Biroq bugun dunyo o‘zgardi. To‘rtinchi sanoat inqilobi va sun’iy aql asri tillar oldiga butunlay boshqa, shafqatsiz talablarni qo‘ymoqda. Bugun tilning yashab qolishi uning nafosati bilan emas, balki uning pragmatik va texnologik vazifasi bilan o‘lchanmoqda. Shu bois, bu masalaga ochiq va tik boqib, mavjud jarayonni tan olishimiz shart. Endi tilning kelajagi uning qanchalik chiroyli she’r yozishga moslashganida emas, balki qanchalik murakkab algoritmlarni ifodalay olishi, yangi ilmiy kashfiyotlarga poydevor bo‘la olishi bilan bog‘liqdir. Shu jihatdan, adabiyot – tilning o‘tmishi va yuragi, raqamli dunyo tili esa uning kelajagi, qonini yurgizadigan asosiy mushagidir.

Til yashashi uchun unda kiberxavfsizlik kodlari yozilishi, ma’lumotlar zanjiri (blokcheyn tizimi) tahlil qilinishi, neyrotarmoqlar o‘qitilishi va oliy matematika formulalari ifodalanishi lozim. Qachonki, o‘zbek dasturchisi murakkab kod tuzilmasini, mashina ta’lim algoritmini o‘z ona tilida ingliz yoki rus tilidan kam bo‘lmagan aniqlikda ifoda eta olsagina, tilimiz raqamli olamning to‘laqonli a’zosiga aylanadi. Azaldan dunyo qonuniyati shunday. Qaysi tilda ilm-fan yaratilsa, o‘sha til hukmron bo‘ladi. Alaloqibat, shu til egalari dunyoni boshqaradi. Temuriylar davrida mumtoz o‘zbek adabiy tilining qudrati yolg‘iz o‘sha davrda yaratilgan asarlar badiiyatida emas, balki Navoiyning til bilimida, Ulug‘bekning falakiyot



**Qudratulla OMONOV,**
**filologiya fanlari doktori,**
**professor**

ilmida, Ali Qushchining matematikasida ham namoyon bo‘lgan. Biz mana shu yo‘qotilgan muvozanatni tiklashimiz kerak.

Bugun yadro fizikasi, gen muhandisligi va neyrobiologiya sohasidagi yangi kashfiyotlar o‘zbek tilida tafakkur qilinmasa, chet elda yaratilgan tayyor texnologiyalar va g‘oyalarning iste’molchisi sifatida davom etsak, qaramlik ruhiyatidan chiqa olmaymiz. Ilm va texnologiya yaratiladigan til milliy mustaqillikning bosh garovidir. Chet tilini o‘rganish majburiyat, lekin ilmni o‘z tilida yaratish milliy sha’n va huquqdir.

Xulosa shuki, tilimizni asrash va yuksaltirish haqidagi balandparvoz va’zxonlikdan amaliy raqamlashtirishga o‘tadigan kez keldi.

Davlatimiz rahbari kuni kecha Janubiy Koreyaga tashrifi chog‘ida koreyslarning bu borada ilgarilab ketganini ta’kidlab, ko‘ptarmoqli hamkorlik rejasini kun tartibiga qo‘yganida ham ana shu talab va ehtiyoj mavjud.

Tilning chinakam sofligi va buyukligi uning qanchalik qadimiyligida emas, balki zamonaviy dunyo bilan qanchalik hamnafas qadam tashlay olishidadir. Biz o‘g‘il-qizlarimizga nafaqat go‘zal g‘azallarni o‘qib beradigan, balki ularga sun’iy aql bilan o‘z tilida muloqot qilish, kosmik texnologiyalarni o‘z tilida dasturlash imkonini beradigan qudratli va jonli tilni meros qoldirishimiz shart. Yuqorida qayd etilgan raqamli infratuzilmani, ilmiy baza va til jozibadorligini yarata olsak, o‘zbek tili yaqin kelajakda yolg‘iz Markaziy Osiyoning emas, balki global raqamli dunyoning eng qudratli ilm va texnologiya tillaridan biriga aylanadi. Bu esa Uchinchi Renessansning haqiqiy amaliy poydevori bo‘ladi.


ADIB TAVALLUDINING 100 YILLIGIGA

# ODIL OG‘ANING ARMONI

**O‘zbekiston xalq yozuvchisi Odil Yoqubov bilan yillar davomida ko‘p bor xizmat safarlarida bo‘ldim, rasmiy tadbirlar, adabiy anjumanlar, xalqaro uchrashuvlarda birga qatnashdik. Viloyatlarga xizmat safarlarida biz bilan ulkan yozuvchi, atoqli romannavis, o‘ziga e’tibor talab qiladigan amaldor emas, boladay beg‘ubor, dilkash, o‘ta kamtarin bir inson yurdi. Olmaotada O‘zbekiston madaniyati kunlari o‘tkazilganda, qozoqlar bu insonni, yana bir hamrohimiz Nosir Fozilovni bag‘oyat e’zozlashdi. Qozoq adabiyotining yirik oqsoqoli Abjemil Nurpeisovning uyidagi ziyofatda Odil akani tug‘ishgan inilariday hurmat qilishdi. Abjemil og‘a: “Adil, Chingiz senga bejiz xat yozmagan, Ulug‘bek haqidagi romaning shunday e’tiborga sazovor, xo‘b kelishtirib yazgansan, qo‘lingdan keladi, yana shunday romanlar yazaber”, dedi.**

Xotira-esse

Olimlar, shoir-yozuvchilar, madaniyat vakillari o‘rtasidagi uzilib qolgan ijodiy hamkorlik aloqalari tiklana boshladi. O‘zbek matbuotining darg‘alaridan biri darajasiga ko‘tarilgan iste’dodli jurnalist Anvar Jo‘raboyev rahbarligida “Markaziy Osiyo madaniyati” nomli gazeta faoliyati yo‘lga qo‘yildi.



O‘sha kunlarni eslashimning boisi – qurultoyga ikki-uch kun qolganida, qo‘shni respublikalarning faol ziyolilaridan iborat vakillar Toshkentga keldi. “Shelkovichnaya” deb ataladigan chog‘gina mehmonxona ikki kecha-kunduz his-hayajonli, uyqusiz shtab-kvartiraga aylandi. “Har to‘kisda bir g‘avg‘o” deganlaridek, bo‘lajak assambleya faoliyatini yo‘lga qo‘yish bilan bog‘liq tashkiliy masalalar ko‘rib chiqilayotganida Chingiz og‘a juda horidi. Odil aka tinim bilmadi. Ertalabgacha uxlamay, ko‘zlari qizargan holda murosa yo‘lini qidirishdi. Birgina assambleya nomi xususida rosa ikki kun tortishuv bo‘ldi. Taklif kiritishda qozog‘istonlik va tojikistonlik vakillar o‘z fikrlarini ochiq bayon qilishdi, turkmanistonliklar o‘zlarini vazmin tutdilar. O‘shanda men Chingiz Aytmatovni o‘zim uchun tajribali diplomat-muzokarachi, Odil Yoqubovni sabr-qanoatli, har qanday holatda ham hissiyotga berilmaydigan kengfe’l rahbar sifatida kashf etganman. Oradan yillar o‘tdi. Aytmatov tez-tez Toshkentga kelib turdi, boshqa vaqtlari Lyuksemburg, Parijdan turib bo‘lsa ham boshqaruvni qo‘lida saqladi. Asosiy ish Odil akaning zimmasiga tushdi.

2001-yili edi. Qo‘shni mamlakatda ayrim deputatlar oqin suv taqsimoti bilan bog‘liq masalani parlamentda muhokama qilib, amalda mavjud xalqaro konvensiyaga mos kelmaydigan taklifni o‘rtaga qo‘yishdi. Katta rahbar meni chaqirib: “Chingiz qayerda, eshitgan bo‘lsa kerak, nega jim turibdi? Topib aytinglar, bir nima desin”, dedi. O‘sha zahotiyoq Odil akaning oldiga bordim. Masalani tushuntirdim. “Chingiz Aytmatovga o‘zingiz tushuntirasiz-da”, dedim. Odil aka biroz o‘ylanib turdi-da, yordamchi yigitni chaqirdi. U Parijdagi mehmonxonalardan biriga bog‘landi va oradan bir-ikki daqiqa o‘tgach, Aytmatov bilan salomlashib, qo‘l telefonini Odil akaga uzatdi. Odil aka “Chingiz, salam, amansinbi”, deb gap boshladi va “Mening oldimda davlat maslahatchisi, sen taniysan – jerdeshing Axmatjan o‘tiribdi, senga bir og‘iz gapi bor ekan”, deb telefonni menga bersa bo‘ladimi?

Hayajon bosdi. Ammo o‘zimni tutib, aytmoqchi bo‘lgan gapimni aytdim. Chingiz og‘a biroz o‘ylanib turib, “Ay, men buyaqda bolsam, tiyaqda (u yoqda) bunday gaplar boliptir, uqdim, emi Axmatjan, men aralashsam qanday bolot eken-a?” dedi. Bildimki, aralashish niyati yo‘q. Bir nima desa, “Aytmatov kimning tomonida?” deb uning o‘ziga tashlanib qolishlari aniq. Qisqasi, Aytmatov o‘rtaga tushmadi. Keyinroq, bu voqeaga mutlaqo daxli yo‘q boshqa muammo bois, hamma ish chappasidan ketdi. Assambleya o‘z-o‘zini tarqatib yubordi. Bu endi – boshqa mavzu.

Shundan keyin Odil aka hayotida qandaydir sokinlik yuzaga keldi. Bir tahririyat yangi roman qo‘lyozmasini o‘ziga qaytarib berdi. “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasining 50 yilligini o‘tkazayotganimizda ozroq asabiylashdi. Tug‘ilgan kunining 80 yilligida qozog‘istonlik do‘stlari Toshkentga kelib, katta dasturxon yozishdi. Nomi ro‘yxatlarda kamroq ko‘rinadigan bo‘ldi. Bunday paytda biz ustozga qo‘ldan kelgancha ko‘makdosh bo‘lib turdik. Odil aka har-har zamonda tahririyatga qo‘ng‘iroq qilib: “Ay, hadeb ishlayverasizlarmi, kelinglar-da bir, norin tayyor, boshqa narsalardan ham bor”, der edi. Bir gal “Yardamlaring kerak bo‘lib qoldi. Bizning ko‘chada uch kundan beri chiroq yo‘q. Eski Magnitagorskiy ko‘chasi. Rahbarlariga qo‘ng‘iroq qilinglar-chi. Mendaqa qari cholning aytgani boshqa, sizlarniki boshqa”, deb qoldi. O‘sha kuniyoq Yunusobod tumani hokimining o‘rinbosarini topib, undan iltimos qildim. Xayriyat, Odil Yoqubov degan yozuvchi borligini bilar ekan, “E, biz u kishini hurmat qilamiz, hozir o‘zim shug‘ullanaman”, dedi. Kechga yaqin telefon go‘shagidan yana ustozning ovozi keldi: “Ay, hammani oyoqqa turg‘izib yuboribsizlar-ku, kelib yaqib berishdi. Rahmat. Endi kelinglar, chiroq yanganini yuvaylik…”

Oradan bir-ikki kun o‘tgach, Murod Abdullayev bilan ustozni ko‘rgani bordik. Biroz horg‘inliklari bizni ko‘rishi bilan tarqab ketganday bo‘ldi. Dasturxon mo‘l. Shunday kelib turinglar-da, deya bir yayradi, bir yayradi ustoz.

Suhbatimiz uzoqqa cho‘zildi. Odob saqlab tinglab o‘tirdik. “Osiy banda”ning qo‘lyozmasi jurnaldan qaytganini aytib, biroz asabiylashdi. Ozod akani qahramonlik unvoni bilan qanday tabriklaganini esladi, Chingiz Aytmatovning “Qulayotgan tog‘lar” romanini o‘qigan ekan, “Chingiz – Chingiz-da, nima yozishni biladi”, dedi. Shu joyda ustozdan bir-ikkita o‘zim uchun muhim narsalarni so‘rab olishga jazm etdim. Odil aka o‘ylanib turib, shunday javob qildi: “Chingiz ulug‘ yazuvchi. Hech birimiz qilmagan ishlarni qildi. Ammo… bu dunyoda siz-u biz tushunmaydigan narsalar ham ko‘p-da. Katta adamlarning xatasi ham katta bo‘ladi. Beayb Parvardigor. Shunday…”

Bu gaplar biz uchun nechog‘li qiziq va muhim bo‘lmasin, ustozni charchatib qo‘ymaslikni o‘ylab, taraddudlanamiz. Hadeb bir nimalarni so‘rayverishdan o‘zimizni tiyamiz. Ammo Odil aka gapdan gapga ochilib borardiki, biz shunday ulug‘ ijodkor bilan yonma-yon o‘tirganimizdan, u kishiga zamondosh bo‘lganimizdan ich-ichimizdan g‘ururlanib o‘tirardik. Faqat, bu go‘zal suhbat ustoz bilan bizning so‘nggi muloqotimiz ekanini bilmasdik…

Bir xotira. Chingiz Aytmatov tavalludining 90 yilligi munosabati bilan Issiqko‘lda an’anaviy forum o‘tkazildi. Ibrohim G‘afurov, Hamidulla Boltaboyev, men va yana uch-to‘rt kishi ishtirok etdik, adib yashagan uyda tashkil etilgan muzeyni borib ko‘rdik. Chingiz og‘aning O‘zbekistonda chop etilgan kitoblaridan olib borgan edik, ularni muzey fondiga topshirdik. Tadbirlarda yozuvchining singlisi Roza (Rozaliya) Aytmatova bilan uchrashib, O‘zbekistonda ulug‘ yozuvchi xotirasini abadiylashtirishga doir qilinayotgan ishlar, ilmiy tadqiqotlar to‘g‘risida so‘zlab berdik. “Akamning O‘zbekistonda do‘stlari ko‘p edi. Parij yoki Bryusseldan qaytishda Toshkentga qo‘nib o‘tar, qadrdonlari bilan miriqib suhbatlashmasa, ko‘ngli o‘rniga tushmasdi, – deya gap boshladi opa. – Odil Yoqubov bilan chin do‘st edi. Uning rus tilida chiqqan “Ulug‘bek xazinasi” romanini o‘qib, shunday ta’sirlandiki, bir necha kun shu asar voqealari xayolini band etganini bizga o‘zi gapirib bergandi. Oradan ko‘p o‘tmay, roman muallifiga xat yozganini eshitdik. Men ham bu asarni o‘qib chiqqanimda, Odil og‘a ham akam kabi hayotning ko‘p chag‘ir yo‘llarini bosib o‘tgani, urush qatnashchisi ekanini bilib oldim. Akam bilan uchrashganimizda gap, albatta, o‘zbek qadrdonlariga burilardi. Odil Yoqubovni “xuddi ismiday odil, rostgo‘y, to‘g‘riso‘z, sodda odam, ammo qalami o‘tkir, fikri teran”, deb tanishtirgan, yana: “Odil do‘stim men kelishim bilan qo‘y so‘yib, mehmon qiladi, oilasi, farzandlari juda mehmondo‘st. Odil yaqinda yana ikki do‘stim – Suyun Qorayev, Ziyod Yesenboyev bilan Talasga, mening yubileyimga keladi, biz ham ularni yaxshi siylashimiz kerak”, degani yodimda. Akam Abdulla Oripovni “O‘zbek poeziyasining yangi quyoshi” degan. Sharof Rashidovning inisi Asil Rashidovdan ham minnatdor bo‘lib yurdi”.

Odil akadan katta adabiy meros qoldi. “Odil Yoqubov necha yuz yillardan keyin ham qancha-qancha avlodlarimizga suyukli bo‘lib qoladi. Kitoblari o‘qiladi, – degan edi Abdulla Oripov. – Chingiz Aytmatov “Ulug‘bek xazinasi”ni o‘qib, unga yozgan xatining o‘zi nomini abadiylashtirib qo‘ydi. Qani, yana kimga shunday xat yozgan?! Bir vaqtlar ikkalamiz SSSR xalq deputati bo‘lib saylanganmiz. O‘shanda Moskvada syezdning bosh minbariga chiqib, jasoratli nutq so‘zladi. Minbarga chiqish uchun navbatga yozilish oson bo‘lgani yo‘q. Bu ishga delegatsiyamiz rahbari aralashdi. Odil aka qat’iy turdi, jiddiy tayyorgarlik ko‘rdi. O‘zbekistonni, o‘zbekni, paxtani, paxta dalalarida umri o‘tayotgan mushtipar, xasta o‘zbek ayolini mutlaqo bilmaydiganlar ham o‘rinlaridan turib, uzoq qarsak chaldi. Aytsa, gapirsa bo‘lar ekan-ku, deyishdi. Syezd ruhi o‘zgardi. Ozod Sharafiddinov: “Odil, umr bo‘yi yozganing bitta-yu, shu chiqishing bitta!” deb uzoq vaqt maqtab yurdi, “Nutq” degan katta maqola yozdi. O‘sha paytda to‘kilib borayotgan qudratli mamlakatning Boltiqbo‘yi qismida o‘ziga xos norozilik isyonlari bo‘lib turardi. Bir-ikki kun biror voqea yuz berishi mumkinday, hammamiz olazarak bo‘lib turdik. Odil akaga, har qalay, tegishmadi, boshqa payt bunday shakkoklik uchun qamalib ketishi hech gap emasdi. Yillar o‘tsayam, Odil aka el-yurt xotirasida albatta qoladi. Hali qancha xotiralar yoziladi”.

Xotira-essega shu yerda nuqta qo‘ymoqchi edim. Ammo unga o‘zim qo‘ygan sarlavha yodimga tushdi. Darvoqe, Odil Yoqubovning armoni nima edi?

Boshqa bir gal Odil akaning oldiga jiddiy ish bilan borganimda, suhbatimiz o‘z-o‘zidan Moskvadagi jasoratli chiqishga burildi. Odil aka zerikibroq o‘tirgan ekan, yayrab gapirdi: “Avvaliga hayajon bosdi. So‘zni sal cho‘zvorganlarni syezdga raislik qilayotgan Lukyanov to‘xtatib turibdi. Meni to‘xtatmadi. Gapirib bo‘ldim. Prezidiumda o‘tirganlarni bilmadim, ammo butun zal o‘rnidan turib, qarsakni urib turibdi. Ular orasidan o‘tib, joyimga borishim kerak. Ko‘zim Saxarovga tushib qoldi. Bu ulug‘ inson ham o‘rnidan turib qarsak chalmoqda. Yuragim gupurlab ketdi. Tanaffus bo‘ldi. Hamma meni o‘rab olgan. Tabrik ustiga tabrik. Men bo‘lsam, Saxarovning oldiga borib, bu buyuk insonga rahmat deb qo‘yishni unutibman. Shu narsa armon bo‘lib qoldi-da...”

Ustozning boshqa armonlari ham bor edi. Armon deganlari kimda bo‘lmaydi, deysiz. Ammo bu xususda biror marta bo‘lsin, gap ochmadi. Negaki, ko‘ngli xotirjam, hammasi o‘rniga tushishini yaxshi bilardi. Shunday bo‘ldi ham.

**Ahmadjon MELIBOYEV**



**Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti farmoniga muvofiq O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan jurnalist va adib, “Jahon adabiyoti” jurnali bosh muharriri Ahmadjon Meliboyev xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik va madaniy aloqalarni mustahkamlashdagi xizmatlari uchun “Do‘stlik” (“Dostuk”) ordeni bilan taqdirlandi. Mukofotni 14-sentyabr kuni Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov topshirdi.**

**Ustoz ijodkorni yuksak e’tirof bilan qizg‘in qutlaymiz!**




# “XAYBAR–25”DA NIMA GAPLAR?

Boshlanishi 1-sahifada.

– Avvalambor, shuni ta’kidlash kerakki, muhtaram Prezidentimiz boshchiligida davlat tomonidan yaratib berilgan qulay imkoniyatlar tufayli nashriyotimiz qisqa vaqt ichida o‘z faoliyatini to‘laqonli yo‘lga qo‘yishga erishdi. “Yaldo kechasi” romani yil davomida o‘quvchilarning talablari hamda kitob savdosi va targ‘iboti bilan shug‘ullanadigan tashkilotlarning buyurtmalariga ko‘ra, lotin va kirill yozuvlarida bir necha bor qayta chop etildi va ta’lim muassasalari, kutubxonalar, mahallalar, mehnat jamoalari va harbiy qismlarga yetkazib berildi. Ayniqsa, yoshlarimiz o‘rtasida romanga bo‘lgan qiziqish ortib borayotgani barchamizni mamnun etadi.

Asar mamlakatimiz va chet ellarda ham keng e’tirof etilayotgani diqqatga sazovordir. Buni kitob haqida ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda o‘nlab taqriz va maqolalar, tahliliy-tanqidiy materiallar, hatto, alohida risolalar e’lon qilingani, muallif nomiga yuzlab xatlar kelayotgani ham tasdiqlaydi. Xususan, asarni targ‘ib etishda jonbozlik ko‘rsatgan hurmatli “Jadid” gazetasi tahririyatiga chin dildan minnatdorlik bildiramiz.

Biz – nashriyot vakillari “Yaldo kechasi”ga bag‘ishlangan chiqishlarning barchasini sinchiklab kuzatib, to‘plab bormoqdamiz. Shu o‘rinda ushbu fikr-mulohazalarning hajmi roman hajmidan bir necha marta oshib ketganini ham qayd etish joiz. Ularni alohida kitob shaklida chop etishni rejalashtirganmiz.

Bugungi kunda romanni qoraqalpoq, qozoq, qirg‘iz, ozarbayjon, tojik, turk, arab tillariga tarjima qilish, uni arab yozuviga asoslangan eski o‘zbek alifbosida chop etish, audiokitob va kino variantini yaratish bo‘yicha respublikamiz va xorijiy mamlakatlardagi turli nashriyotlar, adabiy jurnallar, studiyalar va tarjimonlardan takliflar kelib tushmoqda. Biz bu takliflarni asar muallifi bilan birgalikda jiddiy o‘rganib chiqmoqdamiz.

Shuningdek, “Yaldo kechasi” motivlari asosida “So‘z” loyihasi doirasida sahna tomoshasi ham tayyorlanib, respublikamizning viloyat va shaharlarida muvaffaqiyat bilan namoyish etilmoqda.

Joriy yilda muhtaram Prezidentimizning Farmoniga muvofiq, adibimiz Xayriddin Sultonning “O‘zbekiston Respublikasi xalq yozuvchisi” faxriy unvoni bilan taqdirlangani u kishining barcha muxlislari qatori biz – nashriyot xodimlarini ham behad quvontirdi.

Jamoamiz ilk yutuqlardan ruhlanib, yana bir muhim loyihani amalga oshirdi. Xayriddin Sultonning “Osmoni falaklarda” nomli hikoyalar to‘plamini mohir tarjimon Saodat Komilova tarjimasida rus tilida nashr etdik. Mashaqqatli va sharafli kasb egalari bo‘lgan uchuvchilar hayotiga bag‘ishlangan “Стихия небесная” nomli bu ajoyib asar nafaqat yurtimiz kitobxonlari, balki qo‘shni davlatlar adabiy jamoatchiligi tomonidan ham qizg‘in kutib olindi. Jumladan, Qozog‘istonda chiqadigan “Prostor” jurnali mazkur hikoyalarni ko‘chirib bosgan bo‘lsa, Qirg‘izistondagi “Ala-Too” adabiy jurnalining uch sonida ularning qirg‘iz tiliga tarjimasi chop etildi. Hozirgi vaqtda ushbu turkum taniqli adiba va tarjimon Inna Frolova tomonidan belarus tilida nashrga tayyorlanmoqda.

Shu bilan birga, kitob asosida rejissyor Jahongir Qosimov suratga olgan “Osmoni falaklarda” nomli ikki filmdan iborat kinodilogiya yaqin kunlarda Rossiyada bo‘lib o‘tadigan “Antares” xalqaro kinofestivalida namoyish etilishi kutilmoqda.

Nashriyotimiz Xayriddin Sulton bilan uzoq muddatli shartnoma tuzgan bo‘lib, ayni paytda biz qadrli muallifimizning oltita yangi kitobini chop etish uchun so‘nggi tahrir va badiiy bezash ishlarini amalga oshirmoqdamiz. Nasib etsa, yaqin kunlarda “Tabiblarim”, “Ilohiyot darsi”, “Umrboqiy mavzular”, “VIP (Balandmaqom shaxslar)”, “Habiblarim”, “Yo‘llarda” deb ataladigan kitoblar turkumini yuksak didli o‘quvchilarimizga taqdim etamiz.

Turli davrlar va mamlakatlarni, rang-barang adabiy janrlarni qamrab oladigan, g‘aroyib taqdirlar haqida hikoya qiladigan, goho shodiyona, gohida esa mahzun ohanglar bilan yo‘g‘rilgan bu asarlar g‘oyat qiziqarli va maroqli bir uslubda bitilgan. Kitoblarning hajmi u qadar katta emas, har biri o‘rtacha to‘rt-besh bosma toboqni tashkil etadi. Ammo inson degan sirli xilqatga, tarix va bugungi zamon voqeligiga faylasufona yondashuv, samimiy yumor tuyg‘usi bu to‘plamlarning barchasini mantiqiy va ruhiy-ma’naviy jihatdan o‘zaro birlashtirib turadi.

# XORAZM JADID MAKTABLARI

Boshlanishi 1-sahifada.

– Muhammad Rahimxon soniy tashabbusi bilan Xiva, so‘ngra Yangi Urganch shaharlarida jadid maktablari tashkil etilguncha bo‘lgan davrda, Turkistonning boshqa hududlari singari Xorazmda ham an’anaviy, asosan diniy bilim beriladigan maktablar hamda rus-tuzem va Oqmachit qishlog‘idagi nemis mennonitlarining maktabi mavjud edi. Ya’ni, ta’lim sohasida, oz bo‘lsa-da, o‘ziga xos raqobatchi dargohlar faoliyat yuritardi. Garchi, xonlik davridagi maktablar Sharqning taraqqiyot yo‘liga kirgan davlatlari, Yevropa mamlakatlariga qaraganda biroz ortda qolgan bo‘lsa ham, ta’lim sohasi o‘z davrining savodxon qatlamini yuzaga chiqarishga xizmat qilgan. Bu maktablar Xiva xonligining har bir bekligidagi qishloqlarida bo‘lgan. Maktabni bitiruvchilar madrasalarda o‘qish uchun imkoniyatiga qarab Xiva, Buxoro va boshqa shaharlarga yo‘l olganlar.

Alloma Abdulla Boltayev keltirgan Xiva shahri va uning atrofidagi madrasalar ro‘yxatida XIX asr oxiridagi 64 ta madrasa nomi, barpo etilgan yili, hujralar soni va vaqf yerlari qayd etilgan. Undan tashqari, xonlikdagi bekliklarda ham madrasalar, tabiiyki, maktablar ham faoliyat ko‘rsatgan. Ana shunday vaziyatda o‘z nomi bilan yangi – jadid maktablarining ish boshlashi uchun davlat miqyosida xayrixoh kerak edi. Chunki, XIX asr oxirida Turkistonning turli hududlari: Farg‘ona, Toshkent, Samarqand va Buxoro amirligida tashkil etilgan jadid maktablari mutaassib qadimchilar tomonidan tazyiqqa uchragan holatlar ko‘p kuzatilgan. Xorazmda esa hukmdor Feruzxonning xayrixohligi va jadid maktablari faoliyatini qo‘llab-quvvatlashi bois, ta’lim sohasidagi yangiliklarga qarshilik ko‘rsatilmagan. “Tarjimon”



*Bobooxun Salimov*

gazetasining 1898-yildagi xabariga ko‘ra, dastlab Xiva, so‘ngra Yangi Urganchda jadid maktabi tashkil etilgan. Xorazmning birinchi jadid pedagoglari esa orenburglik Muhammad Vafo, mulla Abdurahmon afandilar bo‘lishgan. Maktabga o‘qituvchilar mahalliy yoki qo‘shni hududlardan emas, Orenburgdan taklif qilinganining sababi, ularda yangi usuldagi maktablar oldin tashkil etilgan va tajriba, o‘qitish uslubi yuqori edi. Vaqt o‘tib, xonlikdagi jadid maktablari Xivadan to Xo‘jayli, Qo‘ng‘irot, Chimboy singari hududlarda ham ochilgan va 1920-yilda ularning soni 20 tani tashkil qilgan.

Jadid maktablariga dastlab Orenburg, Qozon, Qrim, Toshkent, Namangandan o‘qituvchilar taklif qilingan bo‘lsa, keyinchalik ular safida mahalliy pedagoglar ham faoliyat ko‘rsatgan. Ayni paytda, Ismoil G‘asprali Xorazmda jadid maktablariga davlat rahbarlari, amaldorlarining xayrixohligidan quvongani holda, boshqa bir zarur masalaga ham e’tibor qaratib o‘tgandi: “Maktablar ochilishi, ko‘payishi lozim... Boqchasaroydan olingan dars kitoblari, Qozondan chaqirilgan muallimlar Xivaga



**Fikrga qarshi fikr bilan kurashmoq kerak: g‘oyaga qarshi o‘q otilmaydi.**

**Antuan RIVAROL**



endi to‘g‘ri kelmaydi, yarashmaydi. Endi Xivaning o‘zidan muallimlar yetishtirmoq kerak va Xivada chop etiladigan alifbolarni yaratmoq kerak” (“Tarjimon” gazetasi, 1913-yil, 278-son).

**– Jadid maktablarini Feruzxon, bosh vazir Islomxo‘ja va boshqa amaldorlar qo‘llab-quvvatlashidan tashqari, ishni tizimli yo‘lga qo‘yish uchun qanday ishlar amalga oshirilgan?**

– “Tarjimon” gazetasidagi xabarga ko‘ra, 1907-yilning 28-mayida Asfandiyor va Islomxo‘ja, 31-may kuni qozikalon, mudarris, oxunlar ishtirokidagi imtihon hay’ati o‘quvchilarni sinovdan o‘tkazadi. Ya’ni, Xivadagi dastlabki ikkala jadid maktabning 113 nafar talabasi hay’atga imtihon topshiradi va hayratlanarlisi, hammasi “a’lo” baho oladi. Imtihon natijasidan ruhlangan valiahd Asfandiyor, bosh vazir Islomxo‘ja va qozikalon Salimoxunlar o‘zaro maslahatlashib, Qozon shahridan ushbu maktablar uchun yana ikki nafar o‘qituvchi taklif qilishga qaror qilishadi. Shu bilan birga, Xorazmda jadid maktablarini ko‘paytirish, o‘quv jihozlari, adabiyotlari bilan ta’minlash, ulardagi ta’lim sifatini nazorat qilish uchun Ramazon Muhammad Karimzodani maktablar noziri qilib tayinlashadi.

Ya’ni, keyinchalik sovet davrida tuman (shahar) xalq ta’limi bo‘limi, viloyat xalq ta’limi boshqarmasi, deya nomlangan tashkilotlardan ancha oldin – 1907-yilda bunday boshqaruv tizimiga birinchi bo‘lib Xivada asos solingandi. Jadid pedagogi Ramazon Karimzodaga Xiva, Yangi Urganch shaharlaridan boshqa hududlarda ham “usuli savtiya” maskanlarini tashkil etish, ularga malakali pedagoglarni jalb qilish, darslik, o‘quv qo‘llanmalari bilan ta’minlash vazifasi yuklatilgan edi. Bundan tashqari, bosh vazir Islomxo‘ja tomonidan tashkil etilgan “Ta’sisoti xayriya”, Husayin Qo‘shayev tashabbusi bilan “Yangi Urganch savodxonligi jamiyati”, Bekjon Rahmon tashkilotchiligi asosida “Turk adamiyati markazi Xorazm bo‘limi” singari jamiyatlar faoliyat olib borgan. Ularning asosiy maqsadi ham jadid maktablari uchun binolar barpo etish, kambag‘al oilalar farzandlari uchun to‘lov qilish, iqtidorli yigit-qizlarni xorijda o‘qitish, ta’lim dargohlarini darslik, kitoblar bilan ta’minlash, pedagoglarga zarur sharoit yaratib berishdan iborat edi.

**– Tarixdan bilamizki, Xivada toshbosma 1874-yilda tashkil qilingan. So‘ramoqchi bo‘lganim, jadid maktablari uchun Xivaning o‘zida ham darslik chop etilganmi yoki faqat chetdan keltirilganmi?**

– Bu maktablarda Ismoil G‘asprali asarlari, shuningdek, Behbudiy, Ibrat, Munavvar qori, Avloniy kabi jadidlarning darsliklari bilan birga, Bobooxun Salimov, Bekjon Rahmon yaratgan “O‘qish kitobi” va “Alifbe” darsliklari ham o‘qitilgan. Xivadagi Otajon Abdolovning matbaaxonasida Qozon, Qrim, Toshkentda yaratilgan darslik, fanga oid kitoblar qaytadan ko‘p nusxada chop etilgan va maktablarga tarqatilgan. Shuningdek, shoir Avaz O‘tar 1906-yili Kavkazdan qaytishida Safarali Valibeyovning “Vatan tili”, “Usuli jadid”, “Lisoniy forsiy” nomli asarlari va “Xazinai axbor” nomli ikki jildlik qomusiy lug‘atini Xorazmga olib keladi. Qozi Maulik nomi bilan tanilgan, boshqird millatiga mansub Abbos Amantev esa Buxorodagi madrasani 1912-yilda tugatib, Chimboyda tashkil qilingan jadid maktabi bolalarini bepul ovqatlantirib, ularga ta’lim bera boshlaydi. Qozi Maulik Chimboyda kitob do‘koni ham ochib, unga turli shaharlardagi bosmaxonalarda chop etilgan kitoblarni keltiradi va o‘zi ham kotiblar jamoasini tashkil qilib, darsliklardan nusxalar ko‘chirtiradi. Namanganlik So‘fizoda ham 1910–1913-yillarda Qo‘ng‘irotdagi jadid maktablarida ustozlik qilish bilan birga, o‘zi bilan birga ko‘plab darsliklarni olib kelgan.

**– Jadid maktablarida ijodkor pedagoglar ham bo‘lganmi?**

– Ha, albatta. Vodiydagi qadimchilar tazyiqi sabab, Muhammadsharif So‘fizoda 1910–1913-yillarda Qo‘ng‘irotdagi jadid maktabida faoliyat ko‘rsatgan. U Namangandagi Is’hoqxon Ibratning bosmaxonasida chop etilgan, shuningdek, Bokuda nashr qilingan darslik va kitoblarni Xorazmga olib kelib, uch yil davomida samarali faoliyat olib boradi va mahoratli pedagog sifatida taniladi.

Tarixdan ma’lumki, Qo‘ng‘irot savdo va iqtisod rivojlangan, tabiati xuddi vodiyniki singari bahavo hudud sifatida ham



*Komil Devoniy*

mashhur edi. Bu vaqtda faqat So‘fizoda emas, Toshkent, Qozon, Orenburgdan yana ko‘plab pedagoglar Xorazmda faoliyat olib borishardi. Asli qozonlik va 1912-yildan Qo‘ng‘irotdagi jadid maktabida pedagoglik qilgan, keyinchalik Qoraqalpog‘istonda ta’lim taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan Seyfulg‘abid Majidov ham shoir bo‘lgan. Orenburglik Abdurahmon afandi, qozonlik Abdulla Salim, Maryam Agisheva, Husayin Qo‘shayev, Komila Qo‘shayeva, David Bakirov, Muxtor Bakirov, Ramazon Saydashev, toshkentlik Husayn Ibrohimov va boshqalar Xorazm ta’lim taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan pedagoglar hisoblanadi.

Shuningdek, “Tarjimon” gazetasiga dastlab To‘rtko‘l, so‘ngra Xivadagi pochta-telegrafdan Qrimga, Ismoil G‘aspraliga maqolalar, xabarlar jo‘natib turgan Ramazon Saydashev va G‘ofur Usmoniy Xorazmning old jadid pedagoglari, jurnalistlari bo‘lishgan. Afsuski, ushbu ikki ijodkor pedagogning hayoti va faoliyati to‘liq tadqiq qilinmagan. Shu bois, ular faoliyatiga qisqacha razm solsak. Ramazon Saydashev dastlab Xivadagi rus-tuzem, 1906-yildan esa Mamat mahramning jadid maktabida faoliyat ko‘rsatgan. Ayni vaqtda, Xorazmdan Qrimga – “Tarjimon” gazetasi bosh muharriri Ismoil G‘aspraliga maqolalar jo‘natib turgan. Ismoilbek G‘asprali Xorazmdan kelgan har bir xabarni gazetada “Xivadan maktub” ruknida “Mulla Ramazon”, “Ramazon Saydashev”, “R.Saydashev” nomlari bilan e’lon qilib borgan. Oldinlari Rossiya, Kavkaz, Turkistondagi gazetalar va muxbirlar orqali yoritilgan Xorazm bilan bog‘liq jarayonlar bevosita Ramazon Saydashevning jurnalistlik faoliyati orqali Qrimda nashr etilib, turli hududlarga yetib bordi.

G‘ofur Usmoniy Xiva, Yangi Urganch shaharlaridagi jadid maktablarida o‘qituvchilik qilgan. Ramazon Saydashevning ta’lim va matbuot sohasidagi shogirdi. Uning Xorazmdagi ta’lim, tibbiyot va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar to‘g‘risidagi maqolalari “Vaqt”, “Tarjimon” gazetalarida muntazam chop qilingan. Qrim, Qozon, Toshkent, Xiva shaharlaridagi arxivlarda izlanishlar olib borilsa, “Xorazmning jadid pedagog ijodkorlari faoliyati va ularning ta’lim, adabiyot va matbuot sohalariga qo‘shgan hissasi” mavzusida dissertatsiya, monografiya yozish imkoni mavjud.

**– Pedagoglar orasida ayollar ham bo‘lganmi?**

– Albatta. Xiva, Yangi Urganch, To‘rtko‘l shaharlarida qiz bolalar ta’lim oladigan alohida jadid maktablari faoliyat olib borgan. Komila Qo‘shayeva Xorazmdagi jadid maktablarida faoliyat ko‘rsatgan ma’rifatparvar Husayn Qo‘shayevning turmush o‘rtog‘i edi. Komila Qo‘shayeva o‘quvchilarga matematika fani, G‘aspralining “Xojai sibyon”, Munavvar qorining “Usuli hisob”, Saidrasul Aziziyning “Ustozi avval”, Abdulla Avloniyning “Birinchi muallim” kitoblaridan saboq bergan. 1904-1906-yillarda Xivadagi jadid maktabida, 1906-yildan esa Yangi Urganchdagi jadid maktabida o‘qituvchilik faoliyatini davom ettirgan. Komila Qo‘shayeva o‘quvchilarga saboq beribgina qolmay, Yangi Urganch shahridagi jadid maktabiga rahbarlik ham qilgan. Asosan qiz bolalar ta’lim oladigan ushbu maktabda Maryam Agisheva, Zaynab Siddiqova ham faoliyat ko‘rsatgan.

Komila Qo‘shayevaning maslakdosh hamkasblaridan yana biri Maryam Agisheva bo‘lib, tatar millatiga mansub bu ayol bosh vazir Islomxo‘ja tomonidan 1907-yilda Qozon shahridan taklif qilingan. Maryam Agisheva Xiva shahridagi jadidlarning qizlar maktabida, so‘ngra Yangi Urganch shahridagi jadid maktabida o‘qituvchilik qilgan. Xorazmlik jadid pedagog ayollarining yana biri Zaynab Siddiqova edi. U ham Komila Qo‘shayeva, Maryam Agisheva bilan hamkorlikda Yangi Urganch shahridagi maktabda faoliyat ko‘rsatgan. Maryam Agisheva, Zaynab Siddiqova o‘zbek tili va adabiyoti, rus tili fanlaridan, Behbudiyning “Risolai jug‘rofiyai Rusiy”, “Kitobat ul-atfol”, “Amaliyoti islom”, “Tarixi islom” kitoblari, Is’hoqxon Ibratning “Lug‘ati sittati alsina” singari darsliklari va qo‘llanmalari asosida saboq berishgan. Ushbu uch nafar pedagog ayol yangi usul maktablari tugatila boshlagan 1920-1921-yillardan keyin sovet maktablarida faoliyatini davom ettirgan. Ularning nomlari Xorazm jadid pedagog ayollari sifatida tarixdan joy olgan.

**– Siz oliygohda talabalarga saboq ham berasiz. Yoshlarning jadid harakatiga qarashlari qanday?**

– Talabalar orasida tarixga, xususan, jadid harakatiga qiziqish katta. Bugungi axborot oqimi kuchaygan va har bir ta’lim maskanida kitoblar yetarli bo‘lgan davrda jadidlarga oid kitoblar, tadqiqot ishlarini darrov internetdan, kutubxonalardan topish mumkin. Ammo, eng asosiysi – ana shu kitoblarni o‘qib tahlil etishda, jadidlar singari qat’iyatli, irodali, dunyoqarashi keng bo‘lib, jarayonlarni tahlil qilib, mohiyatiga yeta bilishdadir. Bugungi avlod orasida jadidlar merosini o‘rganish, anglash qatorida, ular singari xorijiy tillarni biladigan, bugungi zamonaviy texnologiyalarni egallagan yoshlar ko‘p. Urganch davlat pedagogika instituti, Ma’mun universitetida “Jadidlar bog‘i” tashkil qilingani tahsinga loyiq. Quvonch bilan aytishim kerakki, kutubxonalarda talabalarning “Jadid” gazetasida chop etilgan maqolalarni qizg‘in muhokama qilayotganini ko‘p kuzataman.

**– Shunday yoshlarimiz ko‘paysin. Samimiy suhbatingiz uchun rahmat.**

**Ro‘zimboy HASAN suhbatlashdi.**

OLAM OLIMI



# Gerhard ERTL

## mavhumlik zangini aritgan nobelchi

### HAYOT YO‘LI

Gerhard Ertl 1936-yil 10-oktyabrda Germaniyaning Bad Kanshtatt shahrida tug‘ilgan. Oliy ta’limni Shtutgart universitetida olgan. Parij va Myunxendagi texnika universitetlarida ham tahsil olgan.

1965-yili fan doktori ilmiy darajasiga erishgach, Gannover texnika universiteti (1968–1973) va Myunxen universitetida (1973–1986) fizik kimyo kafedralari direktori bo‘lib ishlagan. AQSHda taklif etilgan professor sifatida xizmat safarlarida bo‘lgan.

1986-yilda Berlindagi Fris Gaber institutida fizik kimyo kafedrasi direktorligiga tayinlandi va 2004-yilda faxriy professor unvoniga sazovor bo‘lgunga qadar shu lavozimda ishladi.

### ILMIY YO‘NALISHI

Olim, asosan, fizik kimyoning sirt kimyosi, geterogen kataliz, katalitik reaksiyalar, korroziya, ammiak sintezi va gazlarning metall sirtidagi reaksiyalari bilan shug‘ullangan. Eng muhim tadqiqotlaridan biri – sanoatda ammiak ishlab chiqarish jarayonini o‘rganish bo‘ldi. Ammiak sintezi qishloq xo‘jaligida mineral o‘g‘itlar tayyorlashda muhim ahamiyatga ega.

Ertl azot va vodorodning temir katalizatori sirtida o‘zaro ta’sirga qanday kirishishini molekulyar darajada tadqiq qildi. Uning ishlari katalizator sirtidagi reaksiyalarning murakkab mexanizmlarini tushunishga yordam berdi. Uning yondashuvi kimyoviy reaksiyalarning sirtda qay tarzda boshlanishi, oraliq bosqichlari va yakuniy natija hosil bo‘lishini aniqlash imkonini berdi.

### FAN VA TURMUSH

Ertl tadqiqotlarining amaliy ahamiyatidan biri avtomobillardagi chiqindi gazlarni tozalash jarayonlarini tushunish bilan bog‘liq. Ichki yonuv dvigatellarida hosil bo‘ladigan ayrim zararli gazlar katalizatorlar yordamida nisbatan kam zararli moddalarga aylantiriladi. Olim platina kabi metall sirtlarida uglerod oksidi (SO)ning kislorod bilan reaksiyaga kirishib, karbonat angidrid ($SO_2$) hosil qilish jarayonini molekulyar darajada o‘rgandi. Bunday tadqiqotlar katalitik reaksiyalarning mexanizmini tushunish va samarali katalizatorlarni ishlab chiqish uchun muhim ilmiy asos bo‘ldi.

Temirning zanglashi keng tarqalgan jarayon bo‘lsa-da, uning sirtida qanday bosqichlar kechishini molekulyar darajada tushunish murakkab masala hisoblanardi. Sirt kimyosi usullari orqali olimlar kislorod, suv va metall sirti o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirlarni chuqurroq o‘rganish imkoniga ega bo‘ldilar. Endilikda metalli materiallarni himoya qilish va ularning xizmat muddatini uzaytirishga qaratilgan ilmiy yondashuvlarni rivojlantirish imkoniyati kengaydi.

Sirt kimyosi bo‘yicha ishlab chiqilgan ilmiy usullar atmosferadagi kimyoviy jarayonlarni tushunishda ham qo‘llanadi. Xususan, stratosferadagi muz kristallari sirtida sodir bo‘ladigan ayrim kimyoviy reaksiyalar atmosferadagi moddalarning o‘zgarishi va ozon qatlamiga ta’sir qiluvchi jarayonlarni tadqiq etishda muhim ahamiyatga ega. Bu esa sirtdagi juda kichik masshtabda kechadigan kimyoviy jarayonlar global miqyosdagi ekologik hodisalar bilan qanday bog‘liq bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi.

### E’TIROF

Gerhard Ertl qattiq sirtlardagi kimyoviy jarayonlarni tadqiq etishdagi fundamental ishlari uchun 2007-yilda kimyo bo‘yicha Nobel mukofoti bilan taqdirladi.

Olim bu yil 90 yoshni qarshilaydi. Hozir ham ilm-fanni rivojlantirish va yangi avlod olimlarini tarbiyalash bilan shug‘ullanmoqda.

**Jasmina ISROIL tayyorladi.**

TAFAKKUR OLAMI

# FIKRLASH MADANIYATI



**Jadid ma’rifatparvarlari taraqqiyotning eng muhim sharti sifatida ta’limni ko‘rdilar. Ularning nazarida, maktab faqat savod chiqaradigan joy emas, balki insonni dunyoni anglashga, mustaqil fikrlash va zamon bilan hamnafas bo‘lishga tayyorlaydigan maskan edi. Bugun, oradan bir asrdan ortiq vaqt o‘tib, ta’lim oldida turgan savol mohiyatan o‘sha-o‘sha: biz yosh avlodga bilim beryapmizmi yoki fikrlashni ham o‘rgatyapmizmi? Bu savol, ayniqsa, matematika ta’limiga tegishli. Chunki matematika deyilganda, ko‘pchilikning ko‘z oldiga formulalar, tenglamalar, murakkab hisob-kitoblar keladi. O‘quvchi uchun esa matematika ko‘pincha “formulani yodlash – misolni yechish – javobni topish” zanjiriga aylanib qoladi.**

**Aslida, matematikaning vazifasi bundan ancha katta. Matematika insonni hisoblashga emas, avvalo, fikrlashga o‘rgatadi.**

## JAVOBDAN KEYINGI SAVOL

O‘quvchi masalani yechdi. Javob to‘g‘ri. Dars tugadimi? Yo‘q. Matematik nuqtayi nazardan eng qiziqarli qism ba’zan aynan shu yerdan boshlanadi. Nega bu yechim to‘g‘ri? Boshqa usul bilan ham yechish mumkinmi? Masaladagi biror shartni o‘zgartirsak nima bo‘ladi? Bu natija faqat shu misolda to‘g‘rimi yoki umumiy qonuniyat bormi? Mana shu savollar oddiy hisob-kitobni tafakkur mashqiga aylantiradi. Haqiqiy matematika “Javob nechchi?” bilan emas, ko‘pincha, “Nega?” degan savol bilan boshlanadi.

## YODLASH BOSHQA, TUSHUNISH BOSHQA

O‘quvchi o‘nlab formulalarni yodlab olishi mumkin. Lekin nima uchun ular to‘g‘ri ekanini tushunmasa, bu bilim uzoq yashamaydi. Masalan, Pifagor teoremasini deyarli hamma eshitgan. Ammo matematik uchun teoremani yoddan aytishning o‘zi yetarli emas. Nega aynan shunday munosabat hosil bo‘ladi? Uni boshqa yo‘l bilan isbotlash mumkinmi? Tekislik o‘rniga egri sirtda uchburchak olinsa-chi? Oddiy maktab teoremasidan boshlangan shunday savollar insonni zamonaviy geometriyaning murakkab g‘oyalarigacha olib borishi mumkin. Ilm-fanning kuchi ham shunda: bir javob ko‘pincha yangi savolni tug‘diradi.

## XATO – TAFAKKURNING DUSHMANI EMAS

Ta’limda biz ko‘pincha xatoni yomon natija sifatida qabul qilamiz. Matematikada esa xato juda foydali bo‘lishi mumkin. Ba’zan tadqiqotchi bir necha kun davomida isbot quradi va oxirida uning bir joyida xato borligini aniqlaydi. Ba’zan to‘g‘ri deb o‘ylangan fikr oddiy qarshi misol bilan rad etiladi. Bu – behuda mehnat emas. Chunki inson aynan o‘z fikrini tekshirish jarayonida chuqurroq tushunishni boshlaydi. Matematika odamni “Menimcha, shunday” degan fikrdan “Buni qanday asoslayman?” degan savolga olib keladi.

Bu esa nafaqat fan, balki kundalik hayot uchun ham muhim ko‘nikmadir.

## RAQAM KO‘RDIK – ISHONAMIZMI?

Bugungi inson bir kunda avvalgi avlodlar bir necha oyda uchratmagan miqdordagi axborot bilan to‘qnash keladi. Ijtimoiy tarmoqda bir statistikani ko‘ramiz. “70 foiz odam shunday fikrda”, deyiladi. Matematik tafakkurga odatlangan inson esa darhol savol beradi: “70 foiz kimlarning orasida? Necha kishi so‘ralgan? Tanlov qanday amalga oshirilgan? Boshqa ko‘rsatkich bilan taqqoslansa, natija o‘zgarmaydimi?” Raqamning mavjudligi hali xulosaning to‘g‘riligini anglatmaydi.

Demak, matematik savodxonlik bugun faqat qo‘shish, ayirish yoki tenglama yechishni bilish degani emas. U axborotga tanqidiy qaray olish qobiliyatini ham anglatadi.

## SUN’IY INTELLEKT VA MATEMATIKA

Bugungi texnologiyalar katta hisob-kitoblarni soniyalar ichida bajaradi. Sun’iy intellekt tenglama yechadi, grafik quradi, dastur yozadi. Shunda savol tug‘ilishi tabiiy: insonning o‘zi matematikani o‘rganishi shartmi? Aynan bugun bu yanada muhim. Chunki mashina hisobni bajarishi mumkin, lekin inson oldida boshqa vazifa paydo bo‘ladi: “qaysi masalani yechish kerak? Natija to‘g‘rimi? Qaysi shartlarda to‘g‘ri? Mashina bergan javobdan qanday xulosa chiqarish mumkin va qaysi xulosani chiqarish mumkin emas?” Texnologiya kuchaygan sari insonning mexanik hisoblash qobiliyatidan ko‘ra, tahlil qilish va savol qo‘yish qobiliyati qimmatroq bo‘lib boradi.

## QANDAY O‘QITYAPMIZ?

Bu yerda ta’lim tizimi uchun muhim masala paydo bo‘ladi. O‘quvchi matematikani faqat imtihondan o‘tish uchun o‘rgansa, formulani imtihondan keyin unutishi mumkin. Agar matematika tafakkur vositasi sifatida o‘qitilsa, uning samarasi butun umr qoladi. Buning uchun darslarda faqat to‘g‘ri javob emas, fikrlash jarayoni ham qadrlanishi kerak. Bir masalani ikki xil usulda yechgan o‘quvchining izlanishi rag‘batlantirilishi kerak. Noto‘g‘ri yechim nima sababdan noto‘g‘ri ekanini muhokama qilish ham darsning bir qismi bo‘lishi kerak. O‘qituvchi “Formulani eslab qol” deyish bilan cheklanmasdan, “Nima uchun?” degan savolni ham muntazam berishi kerak. Shunda darsning maqsadi javob topishdan fikr qurish tomon o‘zgaradi.

## TARAQQIYOT POYDEVORI

Biz zamonaviy texnologiyalarning tayyor mahsulotlarini ko‘ramiz: telefon, sun’iy intellekt, navigatsiya, tibbiy diagnostika, raqamli aloqa. Ularning ortidagi matematikani esa ko‘pincha ko‘rmaymiz.

Holbuki, zamonaviy dunyoning katta qismi matematik modellar, algoritmlar, geometriya, ehtimollar nazariyasi va boshqa matematik g‘oyalar asosida ishlaydi. Shu sababli, mamlakatning matematika ta’limiga munosabati faqat bitta fan taqdiriga munosabat emas. Bu uning kelajak muhandislari, dasturchilari, olimlari va texnologiyalariga munosabatidir. Bundan ham muhimi, matematika dalil bilan fikrlaydigan insonni tarbiyalaydi. Dalilni talab qiladigan jamiyatda yolg‘on ma’lumotning yashashi qiyinroq. Savol berishga odatlangan avlod tayyor fikrni shunchaki qabul qilmaydi. Muammoni tahlil qila oladigan yoshlar esa yangi yechim yaratishga qodir bo‘ladi.

O‘quvchi bir kun kelib ayrim formulalarni unutadi. Lekin u maktabda savol berishni, fikrini asoslashni, dalil izlashni, xatosini tekshirish va muammoni mustaqil hal qilishni o‘rgangan bo‘lsa, ta’lim o‘zining eng muhim vazifasini bajargan bo‘ladi. Chunki matematikaning eng katta mahsuli yechilgan misollar soni emas. U – tartibli, erkin va dalilga tayangan tafakkurdir. Shu ma’noda, matematika shunchaki fan emas. Matematika fikrlash madaniyatidir.



**Jasurbek ASLONOV,**
**O‘zbekiston Milliy universiteti dotsenti**

KUZATUV

# INSOF SARI BARAKA

**Bugungi kunimizdan aylanib-o‘rgilsang arziydi! Yaqin tarixda ham didingizga yoqqan biror kiyim yoki buyum kerak bo‘lsa, to‘g‘ri do‘konga bormay, avval tanish-bilish qidirib, ustiga “shapka” berib, ish bitirishga to‘g‘ri kelardi. Endi-chi? Qaysi do‘konga bormang, istagan narsangizni topish mumkin. Ko‘z tegmasin, bozorlarimiz ham to‘kin-sochin. Avvallari o‘zi tugul, hatto nomi ham tushimizga kirmagan, xorijdan keltirilgan avakado, marakuya, “ajdaho mevasi”, mango, ananasning necha-necha navlari bugun peshtaxtalarda to‘lib-toshib turibdi. Bunday mo‘l-ko‘lchilikni yaratayotgan dehqon-u tadbirkorlarimizni duo qilamiz.**

Insofli, vijdonli va iymonli ishbilarmonlarning o‘z ishchi-xodimlariga ish haqini vaqtida va yetarli miqdorda to‘lashi, kun davomida issiq ovqat bilan ta’minlashi, bayram arafalarida mukofot pullari berib, gohida havosi musaffo, tog‘ bag‘ridagi so‘lim go‘shalarga sayohatlar uyushtirishi kabi ezgu ishlariga faqat tahsin aytish mumkin. Odamiylik va adolat hukm surgan bunday korxonalarda, tabiiyki, ish unumi yuqori bo‘ladi, rahbarga nisbatan hurmat-ehtirom ham o‘z-o‘zidan shakllanadi.

Biroq ba’zi noinsof tadbirkorlar faoliyatidagi og‘riqli muammolar haqida ham aytadigan gaplarimiz bor. Hukumatimiz har yili ish haqi, pensiya va nafaqalarni muntazam oshirib boradi. Lekin aksariyat xususiy sektor vakillari qo‘lida ishlayotgan ishchilarning maoshini negadir oshirmaydi. Ba’zi korxona rahbarlarining ustamonligini ko‘ring: ikki yoki uch million so‘mlik oylikning yarmini hujjatga kiritib, qolgan yarmini naqd beradi. Axir, buning ortidan bechora ishchi ertaga pensiyaga chiqadigan bo‘lsa, arzimagan nafaqa bilan chuv tushib qoladi-ku! Bunday adolatsizliklarga o‘zim ham ko‘p bor guvoh bo‘lganman. “Narx-navo dunyo bo‘yicha tinmay oshib borayotgan, byudjet tashkilotlarida ish haqi har yili ko‘tarilayotgan bo‘lsa-yu, bizniki nega joyida turibdi?” – degan haqli savolga xo‘jayinlar sovuqqonlik bilan: “Xohlasang shu, bo‘lmasa, katta ko‘cha. O‘rningga ko‘z tikkan odam tiqilib yotibdi”, deb javob beradi. Ishchi esa ko‘chada qolishdan qo‘rqib, noiloj arzon mehnat evaziga bo‘lsa-da, boshini egib ishlashga majbur.

Yaqinda bir korxona ishchisini gapga solgan edim, xuddi shuni kutib turgandek “yorildi-qo‘ydi”:

– Olti nafar haydovchimiz. Asosan korxona hududidagi ishlarni bajaramiz. Bundan tashqari, uzoq masofalarga, viloyatlarga ham yuk tashiymiz. Ba’zan Samarqand, Buxoro, Namangan, Olmaliq shaharlariga mashina to‘la og‘ir yukni kechani kecha, kunduzni kunduz demay yetkazamiz. Ayniqsa, yarim tunda mashina haydashning mashaqqati og‘ir. Oylik maoshimiz esa atigi to‘rt million so‘m. Vaholanki, ko‘chadagi oddiy kirakashlar bunday og‘ir yukni bir marta tashib berish uchun kamida bir yarim-ikki million so‘m xizmat haqi oladi. Ish beruvchilarning kattani katta,




kichikni kichik demay, qo‘pol muomala qilishiga-ku, ko‘nikib ketdik. Endi yana bir dilozorlikni aytsam...

Bosh chayqab, yupatgannamo quloq soldim. U davom etdi:

– O‘shanda, 31-dekabr kuni edi. Katta zalda Yangi yil bayrami taraddudi boshlandi. Stollar noz-ne’matlarga to‘ldirildi. Ishchi-xodimlar zalni egallab, bazmi jamshid boshlanib ketdi. Biroq “Haydovchilarsiz ishimiz bitmaydi-ku, ularsiz korxona faoliyati to‘xtab qoladi-ku? Nega dasturxon atrofida ko‘rinishmaydi?” – deydigan bir insofli mard topilmadi. Xullas, janob rahbarlar bizdek oddiy mehnatkashlarni odam o‘rnida ko‘rmay, kechaga taklif ham qilishmadi. Bir chekkada bir-birimizga qarab, yelka qisgancha uy-uyimizga tarqaldik...

Yana bir tadbirkorning korxonasida o‘n besh yil ishlab ham kosasi oqarmagan, oliy ma’lumotli, qirq besh yillik ish tajribaga ega bo‘lgan nuroniy otaxonning hasratini eshiting:

– Korxonaga ishga kirayotganimda, “Sizga loyiq lavozim beraman”, deb va’dalarni uyib tashlagan xo‘jayin so‘zining ustidan chiqmadi. Faqat “sabr qiling” deyishdan nariga o‘tmadi. Men sodda, unga ishonib, qancha qimmatli vaqtimni boy beribman. Oxir-oqibat, rasmiy maoshim kamligi sababli pensiyam ham nihoyatda oz belgilandi. Har yili davlat ish haqini necha foiz oshirsa, xo‘jayin ham ustamonlik qilib, hujjatdagi maoshni o‘shanchaga oshiradi-da, naqd beriladigan qismini xuddi shunchaga kamaytiradi. Natijada, qo‘limizga tegadigan umumiy pulga sariq



**Jahongir PIRMUHAMMADOV,**
**O‘zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a’zosi**

chaqa ham qo‘shilmaydi. Janob xo‘jayin oddiy ishchilarni huzuriga umuman yo‘latmaydilar. “Nima muammo bo‘lsa, o‘rinbosarimga uchrashinglar”, degan qat’iy tartibi bor. Muovin esa hech qanday masalani hal qilolmaydi.

Ko‘rib turganingizdek, ba’zi noinsof tadbirkorlar soliq to‘lashdan qochib, davlatdan yashirincha ish yuritadi, ishchilarga o‘z bilganlaricha maosh beradi. Bunday adolatsizlik va nayrangbozliklarga chek qo‘yish vaqti allaqachon kelmadimi?! Korxonada o‘nlab odamlarni ishlatib, tegishli hisobotlarda bir necha kishini ko‘rsatib faoliyat yuritish insofdanmi?! Korxonani korxona, tadbirkorni tadbirkor qilgan mana shu fidoyi ishchi-xizmatchilarga bir oila boshlig‘idek, otalarcha g‘amxo‘rlik qilish zarur emasmi? Asosiysi, Yurtboshimiz iqtisodiyotni sog‘lomlashtirish, xufyona biznesni payini qirqish siyosatini olib borayotgan bo‘lsalar...

Shu bois, istardikki, har yili davlatimiz tomonidan ish haqi necha foizga oshirilsa, mulkchilik shaklidan qat’i nazar, barcha tadbirkorlik subyektlarida ham ishchilar maoshini xuddi shuncha foizga majburiy oshirish tartibi qonunan belgilab qo‘yilishi kerak. Ana shunda jamiyatimizdagi o‘ta muhim hayotiy muammo adolatli hal bo‘lgan, insoniylik tamoyillari qaror topgan bo‘lardi. Xalqimizda “Insof sari baraka” degan naql bejiz aytilmagan.

**TAHRIRIYATDAN:**

*Muallif – 92 yoshli hamyurtimizni ijodga aloqador ko‘pchilik yaxshi taniydi. Jahongir ota ko‘p yillardan beri xalq bilan matbuot o‘rtasida beminnat vositachi vazifasini bajarib keladi. Ushbu munosabat ham kuyunchak ziyolining, uyg‘oq ijodkorning xolisanilloh mushohadalaridir.*

YANGI KITOBLAR


# “So‘z durin nisor ayla...”

**O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi homiyligida nashr etilib, adabiyot ixlosmandlariga taqdim etilgan yangi kitoblar orasida “Dorilomon kunlar keldi” nomli muazzam bayoz alohida o‘rin tutadi. O‘zbek shoiralari va adibalari ijodidan saralangan to‘plam ikki qism-ga – she’riyat va nasr yo‘nalishlariga ajratilgan.**




Kitobning “O‘zbek shoiralari” turkumi xalqi-mizning ardoqli farzandi Zulfiya Isroilovaning mashhur she’rlari bilan boshlanib, bugun adabiyot olamiga dadil qadamlar bilan kirib kelayotgan yosh shoiralar ijodigacha qamrab oladi. Jami 110 nafar ijodkor asarlaridan berilgan yorqin namunalar zamonaviy o‘zbek she’riyatida shoiralarning tutgan muhim o‘rni haqida muayyan fikr uyg‘otadi. O‘z navbatida, “O‘zbek adibalari” bo‘limida jamlangan o‘ttizdan ziyod nasriy asarlar ham o‘quvchilarni e’tiborsiz qoldirmaydi, deb ishonamiz. Muhtasham bayoz “Ijod nashr” nashriyotida zamonaviy dizayn va yuqori sifatda chop etilgan.

**Ma’lumki, xalqimiz tarixida ilm-fan va san’at ahliga homiylik qilish bilan birga, o‘zi ham badiiy ijod yoki biror san’at yo‘nalishi bilan jiddiy shug‘ullangan hukmdorlar ko‘plab uchraydi. Bu ham, albatta, xalqimizning yuksak ma’rifatparvarlik xislatlaridan dalolatdir.**





Ana shunday taraqqiyparvar shaxslar orasida Muhammad Rahimxon Feruz nomi alohida e’tibor va nufuzga ega. Feruz davrida Xorazm adabiy va madaniy muhiti yaratilgan. Ogahiy, Bayoniy, Komil Xorazmiy singari taniqli shoir va olimlar shu davrda barakali faoliyat yuritgan. Shu ma’noda, Feruzning yangi chop etilgan “Tanlangan asarlar”i adabiyot va tarix ilmiga qiziquvchi yurtdoshlarimiz uchun qiziqarli bo‘lishi, shubhasiz. Zero, shoirning o‘zi ham benazir g‘azallari, masnaviy-u munojoti, muxammas-u musaddaslari bilan: “So‘z durin nisor ayla maqdamig‘a, ey Feruz, Bazming ichra kelmishlar bu aziz mehmonlar”, deya diydorlashuvga mushtoq turibdi.

**“Adabiyot” nashriyotida chop etilgan yana bir kitob O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Sherning to‘rt jildlik “Tanlangan asarlar”ining birinchi jildidir. Albatta, bugungi o‘zbek she’riyatini Abdulla Sher ijodisiz tasavvur etib bo‘lmaydi.**

Shoir bir she’rida shunday yozadi:

*Men baxtliman: yo‘ldan ozmadim,*
*Taft kutmadim yiltiroq muzdan;*
*She’r yozdimmi? Yo‘q, she’r yozmadim,*
*Men lolalar undirdim so‘zdan.*

Lolalarday yashnoq she’rlar va balladalardan saralangan yangi kitob shoir ijodi haqida to‘laqonli tasavvur beradi.




**Nigina ISKANDAROVA**

AKS SADO




# TANQIDMI, CHAQIRIQ?



**Sanjar SHOQO‘CHQOROV, texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori**

**So‘nggi oylarda O‘zbekiston Fanlar akademiyasi prezidenti, O‘zbekiston Qahramoni, akademik Shavkat Ayupovning “Jadid” gazetasining 14-sonida chop etilgan “Yangi zamon ilmi” suhbatida ko‘tarilgan masalalar keng jamoatchilik, ayniqsa, ilm-fan kishilari o‘rtasida qizg‘in muhokamalarga sabab bo‘lmoqda. Hatto, ilm ko‘chasiga kirmagan ayrim ijtimoiy tarmoqlardagi sahifa egalari ham olimning jurnalist savollariga bergan javoblarini peshma-pesh e’lon qilib bordi. Bunga nima sabab bo‘ldi?**

Omma diqqatini shou biznesdan, shov-shuvdan ma’rifiy majlisga burgan omil nima edi? Menimcha, bunga suhbatda nafaqat yutuq va imkoniyatlar, balki jiddiy muammolar ham ochiq-oydin tilga olingani, ya’ni, mavzuga xolis yondashilgani sabab.

Suhbatga munosabatlar turlicha bo‘ldi: bir toifa qo‘llab-quvvatlagan, bir toifa norizo, yana bir toifa so‘z qolib, so‘zchini muhokama qilgan... Bu tabiiy. Men esa suhbat asnosida bir qator mulohazalarni o‘zim uchun belgilab oldim. Mazkur suhbat bizga bir vaqtning o‘zida ikki haqiqatni ko‘rish imkonini beradi. Birinchisi, O‘zbekistonda ilm-fan uchun imkoniyatlar sezilarli darajada kengaymoqda. Ikkinchisi, imkoniyatlar ko‘paygan sari tizim oldidagi mas’uliyat ham ortyapti.

Bugun ilm-fanga munosabat kechagidan ancha farq qiladi. Yangi institutlar, laboratoriyalar, grantlar, xalqaro hamkorlik mexanizmlari, yosh olimlarni qo‘llab-quvvatlash dasturlari paydo bo‘ldi. Ilmiy daraja olish, xalqaro ilmiy maydonga chiqish, xorijiy ilmiy markazlar bilan hamkorlik qilish uchun imkoniyatlar kengaydi. Ammo imkoniyatning ko‘payishi hali ilmning o‘zi rivojlandi, degani emas. Imkoniyat – sharoit. Natijani esa olimning salohiyati, ilmiy maktabning quvvati, tadqiqotning sifati va tizimdagi halollik belgilaydi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda ilmiy daraja olishga intilayotganlar soni sezilarli ko‘paydi. Bu, bir tomondan, ilm-fanga qiziqish ortganidan dalolat. Doktorantura tizimining kengayishi, yangi ilmiy kengashlarning tashkil etilishi, tadqiqotchilar uchun yaratilgan imkoniyatlar – bularning barchasi ijobiy jarayon. Biroq savol paydo bo‘ladi: ilmiy daraja sohiblarining soni ortishi bilan natijalar ham shunga mutanosibmi? Mohiyat aynan shunda.

Ilmiy daraja oddiy rasmiy maqom emas. U insonning muayyan sohada mustaqil ilmiy izlanish olib borish, yangi natija yaratish va ilm rivojiga hissa qo‘shish qobiliyatini tasdiqlashi kerak. Agar daraja diplom yoki mansab uchun olinadigan navbatdagi hujjatga aylansa, uning ilmiy qiymati pasayadi. Bunday holatning xavfi faqat bir tadqiqotchining obro‘si bilan cheklanmaydi. Bir kishining yuzaki yoki ko‘chirma tadqiqoti butun ilmiy tizimning ishonchliligiga ta’sir qilishi mumkin. Shuning uchun bugun bizga dissertatsiyadan ko‘ra, ko‘proq sifatli tadqiqotlar kerak.

Darvoqe, ilm qilish uchun imkoniyatlar kengaygan ekan, ilmiy mehnatning o‘ziga qo‘yiladigan talablar ham yuqori bo‘lishi lozim. Har bir tadqiqotning o‘z tabiati bor. Ayrim sohada ilmiy natijaga bir-ikki yilda erishish mumkin. Boshqa bir yo‘nalishda esa buning uchun o‘n yillab mehnat talab etiladi. Ayniqsa, fundamental fanlarda bu yanada yaqqol ko‘rinadi. Shuning uchun doktorantni faqat “Qachon himoya qiladi?” degan savol bilan baholash to‘g‘ri emas. “Nima yaratdi?”, “Qanday yangi ilmiy natija oldi?”, “Uning tadqiqoti o‘z sohasiga qanday ta’sir qildi?” degan savollar birinchi o‘rinda turishi kerak.

2027-yildan ilmiy attestatsiya jarayonida ayrim ortiqcha byurokratik talablarning bekor qilinishi ijobiy qadam sifatida baholanishi mumkin. Olimning vaqti qog‘oz to‘ldirishga emas, tadqiqotga sarflanishi kerak. Hisobotlar, ma’lumotnomalar va formal talablar ilmiy faoliyatning mazmunini bosib ketmasligi lozim. Ilmiy darajani himoya qilish jarayoni ham ochiq, shaffof va xolis bo‘lishi muhim. Biroq sifat talabini oshirish jarayonida yana bir nozik jihatni hisobga olish shart. Sifat uchun kurash halol mehnat qilayotgan, o‘z sohasida izlanayotgan olimlarga nisbatan ortiqcha shubha muhitini shakllantirib qo‘ymasligi kerak.

Bu jarayonda ilmiy jamoatchilikning o‘rni beqiyos. Tizimga qancha nazorat mexanizmi kiritilmasin, oxir-oqibat, fanning ichki madaniyatini olimlarning o‘zi belgilaydi. Bir soha olimlari bir-birining ishiga talabchan va xolis baho bersa, ilmiy muhit sog‘lomlashadi. Shu jihatdan, ayrim ilmiy kengashlarda OAK talablaridan tashqari patent, nufuzli xalqaro bazalarda indekslanadigan jurnallarda maqola kabi qo‘shimcha mezonlarning qo‘llanayotgani e’tiborga loyiq. Buni sun’iy to‘siq sifatida emas, agar mezonlar aniq, ochiq va barchaga birdek qo‘llansa, ilmiy sifatni ta’minlash vositasi deb nomlash mumkin. Demak, fanning sofligini himoya qilishning eng kuchli vositasi olimning ichki mas’uliyati va ilmiy jamoaning professional madaniyati bilan bevosita bog‘liqdir.

Ilm-fanda avlodlar almashinuvi tabiiy jarayon. Ammo bu almashinuv uzilishga aylanmasin. Katta olim o‘z tajribasini yoshlarga berishi, yosh olim esa ustozning tajribasini yangi bilim va zamonaviy yondashuvlar bilan boyitishi kerak. Bunda o‘zaro hurmat va professional raqobat uyg‘unlashadi. Ilmiy maktab aynan shunday muhitda shakllanadi.

Bugun butun dunyo intellektual kapital uchun kurashmoqda. AQSH, Xitoy va Yevropaning yetakchi davlatlari iqtidorli olimlarni jalb qilish uchun milliardlab mablag‘ sarflamoqda. Chunki qaysi mamlakatda kuchli olimlar ko‘p bo‘lsa, o‘sha davlatning iqtisodiy, texnologik va strategik qudrati ham shunchalik mustahkam bo‘ladi. O‘zbekiston ham Prezidentimiz rahbarligida aynan shu yo‘ldan dadil bormoqda.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, akademik Shavkat Ayupovning chiqishi tanqid emas, balki ilmning obro‘sini saqlab qolish, ilmiy darajalar qadrini oshirish, plagiatga qarshi murosasiz bo‘lish, ilmiy maktablarni asrash va haqiqiy olimlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan dolzarb chaqiriqdir. Zero, ilmning sofligini saqlab qolgan millat o‘z kelajagini ham saqlab qoladi.

OYDINLAR

# SHAXSNAVIS ADIB

**Stolim ustida bir ijodkor qalamiga mansub bir nechta kitob. Ularni ustma-ust qo‘yib, o‘lchasam, umumiy bo‘yi bir qarichdan oshdi. Keyin nomlarini qayd etish uchun yoygan edim, noutbugim atrofini butkul o‘rab oldi:**

**“Toshbaqalar poygasi”, “Senga ko‘ngil bersam...”, “Konvert-odam”, “Odil Yoqubov xazinasidan”, “Uyg‘onish zamoning muborak bo‘lsin”, “Vijdon qo‘ng‘irog‘i”, “Sahifaga sig‘magan satrlar”, “Yurak bo‘ronlari”, “Botir Zokirov – o‘zbek bulbuli” (rus tilida), “Do‘ppisi yo‘q dunyo”, “Oltin ovozlar”...**

Keyingi uchtasi shu yil bosilib chiqqan. Bular hali u yozgan kitoblarning hammasi emas, kaminada borlarigina, xolos. Keyingi uchtasi shu yil bosilib chiqqani muallifning bugungi faolligidan dalolat beradi.

Bulardan biri ko‘zga yaqin edi. Avvallari nashriyotlar kitob qo‘lyozmasini bir mutaxassisga taqrizga berar, nashrda taqrizchining nomi ham qayd etilar edi. Adibning ilk kitobi bo‘lmish hikoyalardan iborat “Toshbaqalar poygasi”ga taqriz yozib bergan ekanman. Arxivimdan bundan 42 yil burun bitilgan o‘sha matnni topib oldim. Albatta, unda uncha-muncha takliflar ham aytilgan ekan. Shu takliflarning aksariyati inobatga olinib, hikoyalar saralangan, ayrimlari to‘plamga kiritilmagan, yangilari qo‘shilgan, ba’zilari jiddiy tahrir ham qilinganiga guvoh bo‘ldim. Taqrizdagi ikki muhim parchani bugun aynan keltirish o‘rinli bo‘lsa kerak. Birinchisi: “Muallifning muvaffaqiyati hayotning achchiq haqiqatlarini anglay boshlagan bola obrazini chizishga intilishida ko‘zga tashlanadi. Yosh yozuvchini bolalarning dunyo faqat yaxshiliklardangina iborat emasligini fahmlab qolgan lahzalarini qalamga olish ko‘proq qiziqtiradi. Bu – ijobiy xususiyat”. Ikkinchisi: “Qalamkash hali saviyasi jihatidan bulardan yuksakroq asarlar yozadi, deb ishonaman”.

Adib, chindan, yuksak saviyadagi asarlar yaratdi. Uning mavzu ko‘lami va janrlar maydoni ham kengaygandan kengaydi. Hikoyadan tashqari, qissa, felyeton qissa, ma’rifiy qissa, esse, xotira-esse, ocherk, hangoma, ibrati va hazil iboralar, ma’rifiy roman, qanchadan qancha tahliliy-publitsistik maqolalar yozdi. Har bir qalamkash ijodining yetakchi xususiyati bo‘ladi. Shu ma’noda, bu adibni zamona qahramonlari haqida bitish ko‘proq qiziqtiradi.

Shundan kelib chiqib, uni “shaxsnavis adib” deb ta’riflaging keladi. Buni asarlarining sarlavhalarida “inson” va “odam” so‘zlari ko‘p uchrashidan ham bilsa bo‘ladi. Uning ocherklar va esselardan iborat “Uyg‘onish zamoning muborak bo‘lsin” to‘plamidan joy olgan uch turkumning ikkitasi sarlavhasida “inson” so‘zi uchraydi: “Mehrim tushgan insonlar”, “Insoniylik yuki”.



Kitobdagi ikki asar sarlavhasida esa “odam” kalimasi istifoda etilgan: “Odamlarni boy qilsak – davlat ham boy bo‘ladi”, “Odamlar zavqi bilan yashash zavqi”. Uning bir felyeton-qissasi “Konvert-odam”, monolog tarzida bitilgan bir asari “Shoshilayotgan odam” deb ataladi.

Adib asarlari orasida to‘rttasi alohida ajralib turadi. “Esar Jayhun shamollari” essesi ajoyib xonanda Otajon Xudoyshukurov haqida. Botir Zokirov haqida “Yurak bo‘ronlari” ma’rifiy romanini yozgan. Bu asarlarda xonandalarning ijod “ustaxona”siga dadil kirib borilgan. Hayotining murakkab jihatlari ham teran ochib berilgan. Ulug‘ yozuvchimiz hayoti va ijodini tahlil qilishga bag‘ishlangan yana bir xotira-essesi “Odil Yoqubov xazinasidan” deb nomlanadi. Ne’mat Aminov xususida “Vijdon qo‘ng‘irog‘i” ma’rifiy qissasini yaratdi. Ehtimol, bu adib haqida undan boshqa hech kim bu qadar mufassal kitob yoza olmas edi. Chunki uning haqiqiy shogirdi, qadrdon ukasi edi. Shuning uchun qahramonini juda yaqindan bilardi.

Biz ijodi haqida so‘z yuritayotgan adibimiz uch kishini o‘ziga chin ustoz deb biladi: Ne’mat Aminov, Odil Yoqubov, Ibrohim G‘afurov. Ko‘ngildan kechadiki, endi u O‘zbekiston Qahramoni bo‘lgan uchinchi ustozi haqida ham bir hujjatli-ma’rifiy asar yaratsa, ko‘p yaxshi ish bo‘lar edi.




Tilga olganimiz ikki xonanda va ikki adib hayoti va ijodi haqida dissertatsiyalar yozilgan, yozilayotgandir ham. Biroq ular tor mutaxassislar o‘qishiga mo‘ljallangan bo‘ladi. Adib qalamidan chiqqan bu to‘rt asar esa omma uchun bitilgan. Keyin yozuvchi degani shaxsning ichki dunyosiga kira oladi ham. Olimlarimizning ko‘ngliga kelmasin-u, bu to‘rt asar adabiyot va san’at uchun ham, ilm uchun ham, ehtimol, ular haqidagi dissertatsiyalardan ko‘ra foydaliroqdir.

Adibimiz hozirgi O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida ta’lim olgan. Bu uning uzoq yillar “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasi “San’at” bo‘limi mudiri bo‘lib ishlashida qo‘l keldi. Bu yerda u chinakam san’at tanqidchisiga aylandi. Xususan, musiqa sohasining buyuk namoyandalari ijodini tahlil qilishga bag‘ishlangan ko‘plab maqola yoki esselar bitdi. “Oltin ovozlar” to‘plamidan Y.Rajabiy, A.Abdurasulov, K.Otaniyozov, M.Uzoqov, O‘.Saidjonov, B.Zokirov, F.Umarov, Sh.Jo‘rayev, O.Xudoyshukurov, O.Otajonov, M.Yo‘lchiyeva, M.Dadaboyeva, R.Qurbonov haqidagi materiallar o‘rin olgan.

U adabiyotga bolalar yozuvchisi sifatida kirib kelgan edi. Keyin jiddiy hikoyalar ham bitdi. “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasidan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti devonida ham ishladi, “Mushtum”, “Gulxan” jurnallariga bosh muharrirlik qildi, “O‘zbekiston” nashriyoti bosh direktori o‘rinbosari bo‘ldi. Dolzarb mavzularni ko‘tarib chiqib, tahlil qilgan maqolalari bilan taniqli publitsistlarimizdan biriga aylandi. Publitsistikasi bilan bog‘liq bir nozik jihatni aytib o‘tmasa, bo‘lmas. O‘zbekistonimizning Afshona, Shohimardon, Vodil, Olmos va boshqa ayrim qishloqlari el orasida mashhur. Ammo bu birodarimiz o‘zi tug‘ilib o‘sgan qishloq ahlining quvonch va tashvishlari, ijtimoiy muammolari, ajoyib, mehnatkash, fidoyi kishilari haqida matbuotda turkum maqolalar yozaverib, Navoiy viloyatining Karmana tumanidagi Jaloyirni elga tanitdi.

Xo‘sh, shuncha asarlarini tilga olganimizdan so‘ng bu taniqli adib va publitsist, “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan jurnalist” faxriy unvoni, “Mehnat shuhrati” ordeni, shuningdek, Yoshlar ittifoqi, Botir Zokirov nomidagi milliy estrada mukofotlari sohibi, navqiron yetmish bilan yuzlashgan Ashurali Jo‘rayev ekanini fahmlagandirsiz, albatta. Kitobxonlar undan yana va yana go‘zal asarlar kutib qoladi.

**Sultonmurod OLIM**

JAHON AYVONIDA

## RAMZIY “MUSTAQILLIK”

**Angliyaning Oksford shahri yaqinidagi 350 kishilik Piddington qishlog‘i aholisi ramziy “mustaqillik referendumi”da Buyuk Britaniyadan ajralib chiqishni yoqladi.**




Bunga hududdagi sobiq harbiy obyektga 1200 dan ortiq migrantni joylashtirish rejasi sabab bo‘lgan. Jami 312 saylovchidan 285 nafari mazkur tashabbusni qo‘llab-quvvatlagan.

## ROBOTLAR ZAVODI



Xitoyning “UBTECH Robotics” kompaniyasi Lyuchjou shahrida dunyodagi ilk robotlashtirilgan zavod majmuasini ishga tushirdi.

“Oxu.az” nashrining xabar berishicha, mazkur korxona yiliga 10 mingtagacha gumanoid ishlab chiqarish quvvatiga ega bo‘lib, konveyerdan har o‘n daqiqada bitta yangi qurilma chiqadi.

## KANADAGA TAKLIF

**Yevropa Komissiyasi raisi Ursula fon der Lyayen Kanada Yevropa Ittifoqining ilk assotsiatsiyalangan a’zosi bo‘lishga taklif etilganini e’lon qildi.**



“Euronews” xabariga ko‘ra, bu haqda Strasburgdagi yig‘ilishda ma’lum qilingan. Tadbirda Yevroparlament deputatlari hamda AQSH bilan savdo urushi fonida qit’aga tashrif buyurgan bosh vazir Mark Karni ham ishtirok etdi.

## YEVROPADA SOLIQLAR SONI

**“Tax Policy Associates” tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, Yevropa mamlakatlari orasida alohida soliq turlari soni bo‘yicha Fransiya yaqqol yetakchilik qilmoqda – bu davlatda 348 ta soliq mavjud.**



Ro‘yxatning ikkinchi pog‘onasini 132 turdagi to‘lov bilan Daniya egallagan bo‘lsa, qit’a bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkich qariyb 90 tani tashkil etadi.

## ORBITADA QUROL

**Amerika harbiylari kosmik fazoni nazorat qilish maqsadida Yer orbitasiga maxsus qurollarni olib chiqdi.**



“Air & Space Forces” nashrining xabar berishicha, bu haqda AQSH Harbiy-havo kuchlari vaziri Troy Meynk ma’lum qilgan.

## “ODISSEYA”NING QADIMIY QO‘LYOZMASI

**Niderlandiyaning Utrext universiteti kutubxonasida Gomerning “Odisseya” dostonidan satrlar bitilgan 1700 yillik noyob pergament parchasi topildi.**



Tadqiqotchi Mark de Krey ikki yil avval germaniyalik olimga tegishli bo‘lgan qo‘lyozmalar to‘plamini o‘rganayotgan vaqtda mazkur qadimiy ashyoga duch kelgan.

Yirtilgan bo‘lakning o‘lchami bor-yo‘g‘i 6,6 ga 7,7 santimetr bo‘lib, taxminan o‘yin qartasi kattaligiga teng. Ushbu tarixiy parchada mashhur qadimgi yunon dostonining 12-kitobidan o‘rin olgan bir nechta she’riy misra saqlanib qolgan.

JADIDSHUNOSLIK

# TOSH ICHRA GAVHAR

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Siyosiy qatag‘on qurboni bo‘lgan yurtdoshlarimiz hayoti va faoliyatini o‘rganish, targ‘ib etish hamda ularning xotirasini abadiylashtirish borasidagi ishlarni kengaytirish to‘g‘risida”gi qarori imzolanganiga ikki yildan oshdi. O‘tgan qisqa vaqt ichida tarixiy hujjatda belgilangan vazifalar yuzasidan salmoqli ishlar amalga oshirildi. Jarayon davom etmoqda, xususan, bu yil oktyabr oyining birinchi yettikunligi mamlakatimizda uchinchi bor Siyosiy qatag‘on qurbonlarini yod etish haftaligi sifatida nishonlanadi.**

**Sana arafasida tarix fanlari doktori, professor Rustambek Shamsutdinovning bir juft kitobi – “Millat fidoyilari” (2-kitob) va “Buyuk Cho‘lpon merosidan” asarlari nashr etildi.**

## BUYUK CHO‘LPON IZIDAN

Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lponning shoir, yozuvchi, jurnalist sifatidagi ijodi, ma’rifatparvarlik hamda milliy ozodlik harakatiga oid faoliyati tarixchilar, adabiyotshunos va jadidshunoslar tomonidan keng qamrovda o‘rganilgan. Ulug‘ ustozlar bu borada mustahkam poydevor yaratib bergan bo‘lsa, so‘nggi yillarda zamondosh olimlarimiz tomonidan yangicha nigoh hamda yopiq arxivlar ochilishi sharofati bilan to‘plangan faktlar asosida yangi tadqiqotlar yuzaga kelmoqda, tarixiy haqiqat tiklanmoqda.

* * *

**“Yana bir buyuk yurtdoshimiz Abdulhamid Cho‘lponni olaylik. XX asr boshlaridagi millatimiz taqdirini, uning boshiga tushgan fojialarini, ozodlik va erkinlik qadrini hech kim bu mumtoz shoirimiz kabi yuksak pardalarda kuylagan emas”.**

**Shavkat MIRZIYOYEV**

Bir qarashda Cho‘lpon haqida hamma gap aytib bo‘lingan, asarlari o‘rganilgan, xalqqa qaytarilganday. Biroq daholar merosi shu qadar serqirraki, har gal o‘rganganda, yangi bir masala ko‘zga tashlanadi. Akademik shoir Oybek “Guli va Navoiy” dostonida afsona va haqiqat orasini ochiq qilishni tosh ichidan gavhar izlashga mengzaydi. Garchi Cho‘lpon hayoti va ijodiga oid qimmatli xazina yuzaga chiqqan bo‘lsa-da, mavzuga chuqurroq kirib borilgani sari chog‘roq gavharlar hamon changdan tozarishni kutayotganini ko‘ramiz.

Zahmatkash olim Rustambek Shamsutdinovning yillar davomidagi izlanishlari natijasida sayqallangan ana shunday gavharlardan biri – “Buyuk Cho‘lpon merosidan” nomli kitob bugun qo‘limizda turibdi. Asarda uchta yo‘nalish parallel yoritib berilgan.

Birinchi yo‘nalish Cho‘lpon hayoti va ijodiga bag‘ishlangan xorijiy manbalardan hikoya qiladi.

Olim Moskva safaridan “Поезия узников ГУЛАГА” kitobi bilan qaytadi. Unda shoir haqida kichik maqola va ikkita she’rning ruscha tarjimasi bosilgan edi. Jumladan, mazkur to‘plamda Cho‘lponga shunday ta’rif beriladi:

**“Hayotlik chog‘idayoq, u haqda buyuk Navoiydan keyin o‘zbek tili va adabiyoti shu qadar qudratli lirikani bilmagan, deb aytishgan. “Uning she’riy nutqi hozirgi zamon o‘zbek tilining sarchashmasiga yo‘l ochib beruvchi kalitdir. Hozirgi zamon o‘zbek tili – bu, Cho‘lpon tilidir”, deb aytgan o‘sha zamon tanqidchilaridan biri”.**

Shundan keyin shoirning 1923-yili Andijonda yozilgan “Qiz qo‘shig‘i” (“Песня девушки”) hamda 1924-yili O‘shda bitilgan “Qushning hadigi” (“Ужас птицы”) she’rlari T.Bek tarijimasida keltiriladi. Har ikki ijod mahsuli ham tutqunlik azobi va chuqur taassuf ruhi bilan sug‘orilgani sezilib turadi.

“Qiz qo‘shig‘i”ning har bandi yakunidagi satrlarni o‘qiganda, yurak zirillaydi. “Boshimga” radifli naqoratda shoirning butun qayg‘usi teran iztirob rangida ifodalanadi: “Qora kunlar tushdi mening boshimga”, “Qonli kunlar tushdi mening boshimga”, “O‘tli kunlar tushdi mening boshimga” va boshqalar.

Yakun shunday:

*Qafaslarni buzib*
*Uchsam osmonga!*
*Kishanlarni uzib*
*Yetsam jononga!..*
*Yorsiz kunlar tushdi mening boshimga.*

Shoir ayni she’r mazmunining mantiqiy davomi sifatida bir yildan so‘ng “Qafasdagi qush” asarini yozadi. Inidan ayrilgan, yo‘q-yo‘q, judo etilgan qushchaning qafasdagi birinchi onlari, ozodlik ishtiyoqidagi mashaqqatlari ta’sirchan tasvirlanadi o‘tli satrlarda. Ammo bundan foyda bo‘larmikin? Javob:

*Faqat zaif vujudini qancha*
*ursin devorlarga,*
*Balki uning yumshoq tani*
*to‘lib ketsin ol qonlarga.*

Chunki shoir ta’biricha, “devorlarning sezgisi yo‘q, tuyg‘usi yo‘q, tovush bermas”.

Har ikki she’r ham mazmun-mohiyati bilan Turkiston va turkistonliklar haqida ekanini bir o‘qishda his qilasiz. Zero, Muxtoriyat qonga botirilgan, sovetlar Chor Rossiyasidan avlo emasligi ayonlashgan, xalq boshiga non azobi, ziyolilar boshiga jon azobi tushgan bir pallada millatparvar shoirning shunchaki hijrondagi qiz va qushcha haqida she’r yozib o‘tirishi aslo tasavvurga sig‘maydi. Bu borada Cho‘lpon va Tagor ijodi, uslubi va maslagida uyg‘unlik seziladi. Adibning zamondoshi Rasuljon Rahimiyning kitobda berilgan fikrlari ham buni asoslaydi:

**“Cho‘lpon O‘zbekiston shoiri va yozuvchilari orasida chindan ham yulduzdir. Agar Robindranat Tagor Hindistonda buyuk asarlar yaratgan bo‘lsa, Cho‘lpon bizda ana shunday qimmatli asarlar yaratdi”.**

Ushbu bobda, shuningdek, Rustambek Shamsutdinovning Ozarbayjon safari natijalari haqida so‘z boradi.

Ikkinchi yo‘nalish tergov hujjatlari ko‘chirmalarini qamrab olgan. Rustambek Shamsutdinov asarlarining qiymatini oshiruvchi fazilatlardan biri – ularning aniq fakt va dalillarga asoslanishidir. Aslida, domlaning maqolalari qisqa va lo‘ndaligi bilan ham ajralib turadi. Ana shu qisqa matnda tarixiy faktlar shu qadar zich bo‘ladiki, asosiy maqsad qatag‘on qurbonlari va jadidlar faoliyatini xalqqa, xususan, yoshlarga xalqchil shaklda yetkazishdir.

Mazkur kitobda ham muallif o‘z uslubiga sodiq qolgan. Tarix sahifalaridan ko‘chirmalar to‘la-to‘kis, pardozlanmasdan olingan. Ilm omonatiga xiyonat qilmagan.

“Eshitganingga emas, ko‘rganingga ishon”, degan gap bor xalqimizda. Bugun esa hatto ko‘rganlarimiz ham har doim haqiqat bo‘lmasligi ayonlashyapti. Zero, axborot texnologiyalari va sun’iy intellekt “karomat”i bilan haq va ro‘yo bir-biriga deyarli qorishib ketgan zamonda yashayapmiz. Lekin bundan bir asr avval sovetlarning maxsus idoralarida shunday kimsalar ishlaganki, ularning qilmishlari oldida mingta sun’iy idrok, ta’bir joiz bo‘lsa, choy damlab turadi.

Qo‘lyozmalar yonmaydi, deymiz. Ehtimol... Lekin qo‘lyozmalar o‘chirilishi, yirtilishi, bekitilishi, soxtalashtirilishi mumkin ekan. Bitta yolg‘on bitilgan qog‘ozning saqlanib qolgani mingta haqiqat yozilgan sahifaning kulga aylanganidan ham zararlidir. Chunki qo‘yishi mumkin. Shu ma’noda, o‘tmishning murakkab davrlarini o‘rganishda, hatto, ko‘rgan, tasdiqlangan hujjatlarga ham to‘la ishonch yo‘qligi ma’lum bo‘ladi.

Xususan, qatag‘on yillaridagi tergov hujjatlari siyoh emas, xuddi qon, ter va ko‘zyosh bilan sug‘orilgandek. Cho‘lponning so‘roq tafsilotlari, yuzlashtirish bayonnomalari bilan tanishgan inson beixtiyor seskanib ketadi. Biz bilgan Cho‘lpon Fitrat haqida, Fayzulla Xo‘jayev haqida, boshqa safdoshlari haqida ularning zarariga ishlaydigan gaplarni aytishi mumkinmi? Biz ko‘rmadik, lekin kitob muallifi ko‘rganki, bu hujjatlar eng maxfiy arxivlarda, eng qat’iy talablar asosida saqlangan.

Mana, Cho‘lponning “ishi”, mana, Cho‘lponning ko‘rsatmalari, biroq ifoda Cho‘lponniki emasday. 17 yoshida “Adabiyot nadir?” degan maqola yozgan odam bunaqa g‘aliz yozishi, parishon fikrlashi mumkin emas, axir. Keyin hujjatlarga chekilgan sanalarga nazar tashlaymiz: 1937-yil 23-iyul, 10-avgust; 1938-yil 29-sentyabr, 2-oktyabr...

Agar Cho‘lpon va safdoshlari 1938-yil 5-oktyabrdagi hukm asosida 4-oktyabrda qatl etilganini hisobga olsak, so‘nggi vaqtlardagi gaplar hech qanday rol o‘ynamaganini his qilamiz. Buni shoirning o‘zi ham yaxshi anglagan bo‘lsa kerak. Shu boisdan ham, oxirgi bir yillikdagi bayonnomalarda Cho‘lpon taqdirga tan bergan qiyofada ko‘z oldimizga keladi. Zero, qiynoqning barcha turiga ruxsat berilgan turmada qolib ketish nafaqat jismga, balki aql, qalb va ruhga ham ta’sir qiladi. Inson irodasining ham chegarasi bor.

Shunga qaramay, kitob muallifi xolislik nuqtayi nazaridan tergov materiallarini to‘liq keltiradi. Baho va xulosani esa asarni to‘liq o‘qib chiqqan o‘quvchiga qoldiradi.

Uchinchi yo‘nalish Cho‘lponning muharrirlik faoliyatiga bag‘ishlangan. Kitobda keltirilgan ma’lumotlar bilan qisqacha tanishsak.

Cho‘lpon dastavval “Sadoyi Turkiston”, “Sadoyi Farg‘ona” kabi gazetalarda maqola va she’rlari bilan faol qatnashadi. Keyinroq, sovetlar hokimiyatining ilk yillarida mehnat faoliyatini Farg‘onadagi “Yangi Sharq”, Toshkentdagi “Ishtirokiyun”, Buxorodagi “Buxoro axbori” gazetalari bilan bog‘laydi. Ushbu nashrlarda u tanqidiy-tahliliy chiqishlar qiladi, erkinlik orzusini baqadri imkon kuylaydi. Biroq qizil imperiya tazyiqi ortib borgani sari jadidlar ovozi bo‘g‘ila boshlaydi. Bu holatni shoirning “Muhit kuchli ekan, egdim bo‘ynimni” hamda Abdulla Oripovning “Davrimdan qayga ham tushardim yiroq” satrlari bilan ifodalash mumkindir, balki.

Oqibatda, Cho‘lpon faoliyatini 1923-yildan Andijonda, sovetlarning bu shaharda yurgizadigan milliy ozodlik harakatiga qarshi kurashish kampaniyasida davom ettirishga majbur bo‘ladi.

*“Hukmronlikning asosi qilich va qalam ustiga quriladi, degan qoidaga ko‘ra, sho‘rolar ham tuzgan rejalarining muvaffaqiyati uchun kuchli targ‘ibot va tashviqot ishlarini yo‘lga qo‘yish maqsadida Andijonda gazeta tashkil etishga qaror qiladilar. Turkiston hukumati qarori bilan Andijon shahrida “Darxon” nomli gazeta (o‘zbek tilida, arab imlosida) nashr etiladigan bo‘ldi. Bu gazetaga avval Abdulhay Tojiyev, so‘ngra Andijon revkomi raisi Is’hoqjon G‘oziyev muharrirlik qildi. Markazqo‘m yo‘llanmasi bilan Toshkentdan Andijonga kelgan Cho‘lpon bu gazetaga amalda muharrirlik qilgan. Chunki Is’hoqjon G‘oziyev revkom raisi bo‘lganligi uchun gazeta ishini to‘laligicha Cho‘lpon zimmasiga yuklagan edi”*, deb yozadi muallif.

Ayonki, Cho‘lpon bu gazetada sovet hukumatining siyosatini yoritishda ishtirok etadi, biroq chorasizlikdan ham chora izlashda bardavom bo‘ladi. Garchi to‘rt sahifalik nashrning yarmidan ko‘pini “bosmachilik”ka qarshi kurashish to‘g‘risidagi materiallar egallagan esa-da, sahifalarda jahon xabarlari (ko‘pincha mustamlaka zulmiga qarshi isyonlar, gegemon davlatlardagi inqirozlar doirasida), ta’lim, tibbiyot, ilm-fan, adabiyot va san’at, ijtimoiy va iqtisodiy masalalarga oid maqolalar ham berib borilar edi. Bu o‘sha davrda o‘ta qaltis qadam bo‘lib, Alisher Navoiy hazratlarining quyidagi ruboiysi Cho‘lponning vaziyatini nozik fasohat bilan aks ettiradi, deb o‘ylaymiz.

*Jahon ganjig‘a shoh erur ajdaho*
*Ki, o‘tlar sochar qahr hangomida.*
*Aning komi birla tirilmoq erur –*
*Maosh aylamak ajdaho komida.*

Albatta, bu vatanparvarlik va xalqparvarlik NKVD xodimlarining o‘tkir va sovuq nigohlaridan chetda qolmadi. Alaloqibat, bu harakatlar Cho‘lpon va maslakdoshlari garchi rasmiy idoralarda xizmat qilgan bo‘lsa-da, qonuniy imkoniyatlardan “aksilinqilobiy” maqsadlarda foydalangan, deya baholanadi.

“Buyuk Cho‘lpon merosidan” kitobining qariyb 250 sahifasi aynan “Darxon” gazetasidan olingan ko‘chirmalardan tashkil topgan. Ularni o‘qish tarixning real vaqtdagi talqini bilan tanishish imkonini beribgina qolmay, o‘sha davrning jonli tilini o‘rganishga ham imkoniyat yaratadi.

Mazkur kitob mutolaasini tugatish asnosida Cho‘lpon hayotining kechalari qanday kechgani, qorong‘ida maxfiy qolgan yana bir qancha jihatlarni bilib olish mumkin.

## TADQIQOTLAR DAVOM ETADI

O‘tgan yili “Jadid” gazetasining eng faol mualliflaridan bo‘lgan fidoyi ustozimiz Rustambek Shamsutdinovning “Millat fidoyilari” to‘plami “Jadid” kutubxonasi” ruknida chop etilgan va kitobxonlar tomonidan iliq kutib olingan edi. Mana, bir yil oralig‘ida mazkur kitobning ikkinchi qismi Andijon davlat universiteti Qatag‘on qurbonlari xotira muzeyi, “O‘zbekiston tarixi” kafedrasi hamda “Meros” ilmiy-amaliy xalqaro ekspeditsiyasi xayriya jamg‘armasi tomonidan chop etildi.

“Tirik” tarix zahmatkashi” nomli so‘zboshida ta’kidlanganidek, “Kitobda nafaqat yakka shaxslar (Sa’dullaxo‘ja Tursunxo‘jayev, Sodiq Abdusattorov, Mannon Ramziy kabi), balki butun oilalar, sulolalar katta terror komiga tortilganini o‘qib dahshatga tushadi kishi. Burhonovlar, Xolbotirovlar, Hakimovlar sulolasi ana shunday parokandalikka yuz tutgan oilalar edi”.

To‘plamda saksondan ortiq qatag‘on qurboni haqida so‘z yuritiladi. Ular orasida atoqli davlat va siyosat arboblari, ilm-fan namoyandalari, ijodkor ziyolilar, ulamolar, harbiy soha va sud-huquq tizimi xodimlari, ishchi-dehqonlar va ularning oila a’zolarini uchratish mumkin.

Asarda shunday parchalar yozilganki, ularni o‘qigan kishi beixtiyor o‘yga toladi, o‘tgan davrning chirkinliklari, zulmatdan ziyo izlagan bobolar matonati ko‘z oldimizdan o‘tadi, bugungi dorilomon kunlar saodatiga shukronalik hissi tug‘iladi.

Quyidagi iqtiboslar shunchaki statistika emas, har birining ortida bir inson taqdiri, uning oila a’zolari hayoti turibdi. Bu raqamlarga xotirjam ko‘z tashlab bo‘larmikan...

* * *

**“Katta terror” vaqtida, 1937-yil 30-iyuldan 1938-yil noyabriga qadar 1,5 million kishi qamoqqa olingan (SSSR miqyosida). Shundan 700 mingi otib yuborilgan. Qatag‘on jamiyatning barcha toifalarini o‘z domiga tortgan”.**

* * *

**“1938–1946-yillarda Qarag‘andadagi “ALJIR” (Акмолинский лагерь жён изменников родины) lagerida “Vatan xoinlarining oila a’zolari”dan 6500 ayol jazoni o‘tagani ma’lum”.**

* * *

**“1937-yil 15-avgustdan 1939-yil yanvarigacha Ittifoq bo‘yicha 25342 bola oilasidan ajratib olingan, ulardan 22427 nafari Maorif xalq komissarligi tasarrufidagi bolalar uylariga va mahalliy bog‘chalarga tarqatib yuborilgan. Bu bolalarning yoshi 15 gacha bo‘lgan. Yoshi 15 dan yuqori bo‘lgan bolalar “ijtimoiy xavfli” hisoblanib, qamoqqa olingan va hukm qilingan”.**

* * *

**“1937-yil 10-avgustdan 1938-yil 1-yanvargacha bo‘lgan vaqtda O‘zbekiston bo‘yicha jami 10700 kishi qamoqqa olingan, ulardan 3613 kishi 1-toifa bo‘yicha otuvga, 7087 kishi 2-toifa bo‘yicha 8-10 yil qamoq jazosiga hukm qilingan”.**

## DAVRIMIZ JADIDI


Rustambek Shamsutdinov bu yil tabarruk 87 yoshni qarshiladi. Bu, odatda, nuroniylik fasli hisoblanadi. Lekin domlaning yuragidagi g‘ayrat, aqlidagi tiniqlik, ilm va mehnatga bo‘lgan ishtiyoq qirq yoshli qirchillama yigitlarnikidan aslo kam emas. U kishi o‘nlab mutaxassislarni ham ulkan va sirli ilm ummoni sari chorlab kelmoqda.

Darhaqiqat, har bir yangi kitobi va yozilajak asarlari Rustambek Shamsutdinovni tarix ilmining Rustami dostoniga aylantiradi go‘yo. “Millat fidoyilari”ning 1-kitobiga yozilgan so‘zboshida ta’kidlanganidek: *“Sovet hokimiyati tomonidan amalga oshirilgan qatag‘on siyosatini respublikamizda birinchilardan bo‘lib tadqiq etgan Rustambek Shamsutdinovning Vatanimiz tarixiga oid, maxfiy arxivlarda yopiq saqlab kelingan nodir hujjatlarni atroflicha o‘rganib, tarixiy haqiqatni tiklash yo‘lida sabr va matonat bilan ishlashi, nafaqat yurtimiz, balki qator xorijiy mamlakatlarning ilmiy fondlarida muntazam ravishda izlanishlar olib borishi, to‘plangan noyob materiallarni O‘zbekistonga olib kelib, keng jamoatchilik e’tiboriga havola etishi, ilmiy iste’molga kiritishi har jihatdan ibratlidir”.*

Salaflari bayroq qilib ko‘targan “Tilda, fikrda, ishda birlik!” degan shiorga amal qilib kelayotgan ustoz muarrix bu e’tiroflarga haqlidir. Zero, arxivlarda yuz yillik changni yutib, sarg‘aygan sahifalarga ko‘z nurini to‘kib, sog‘lig‘i va vaqtini, o‘rni kelganda mablag‘ini ham ayamagan ziyolining qiyofasida tom ma’nodagi zamonamiz qahramoni, davrimiz jadidi siymosini ko‘ramiz.

**Otabek BAKIROV**



**Donishmand va olimlarning xulqlaridan o‘rnak olish yaxshi xulqni tiriltiradi, yomonni yo‘q qiladi.**

**Abu Rayhon BERUNIY**

MULOHAZA



# HARIR PARDA

**Bolalik xotiralari ko‘hna suratlarga o‘xshaydi. Yillar o‘tgani sayin ularning rangi o‘chmaydi, aksincha, zamirida yashiringan teran ma’nolar bo‘y ko‘rsatadi. Bugun ellik yil avvalgi so‘lim va osuda o‘zbek hovlilarini eslasam, eng avvalo, ko‘z oldimda darvozaxonadagi oppoq, harir parda gavdalanadi. Bolalik nigohi bilan qaraganda, bu shunchaki oddiy bir mato edi. Biroq bugun o‘sha xotiralarni ruhiyat tarozisiga solib, zamonamiz voqeligiga boqsam, u sharqona turmush tarzining nafis bir chegarasi, oila qo‘rg‘onining ma’naviy qalqoni bo‘lganini anglayman.**

Inson ruhiyati hamisha o‘z shaxsiy hududini himoya qilishga ehtiyoj sezadi. Tarixda bu mahramlik masalasi nihoyatda nozik va go‘zal tarzda hal etilgan. Unda ham taqiq, ham samimiy ochiqlik mujassam edi. Pardaning shaffofligi – xonadonning sof niyatli mehmonga ochiqligidan dalolat berardi. Ichkarining elas-elas ko‘rinishi esa “to‘xta, bu yog‘i oilaning muqaddas hududi” degan ichki bir madaniyatni anglatardi. Bu haqiqat milliy ruhiyatimizdagi hayo va andisha tuyg‘usi bilan chambarchas bog‘liq edi. Bugun esa shaxsiy hayot daxlsizligining yo‘qolishi ortidan kelgan katta axloqiy inqirozga guvoh bo‘lyapmiz. Kecha darvozaxonalarga oq pardalar tutgan momolarning nabiralari bugun oshxonasidan tortib yotog‘igacha, baxtidan tortib fojiasigacha “jonli efir” sahnasiga olib chiqmoqda. Bu ichki ma’naviy bo‘shliqni tashqi dunyoning soxta va aldamchi olqishi – layklari bilan to‘ldirishga urinishdan boshqa nima? Inson uyida osoyishtalikni topa olmasa, begonalarning izohlaridan qidira boshlaydi. Ammo ekran ortidagi minglab “do‘stlar” oilaviy muhit o‘rnini bosa olmaydi, aksincha, ichki bo‘shliqni yanada chuqurlashtiradi.

Insonning siri, jozibasi qolmasa, u qadrsizlanadi. Oila chegarasi buzib o‘tilgan joyda andisha ham, hayo ham zavolga yuz tutadi. Axir, bu axloqiy chegaralar osmondan tushmagan edi. Ularning asosida sof qadriyatlarni millat qoniga singdirgan, hayot maktabini o‘tagan donishmand bobolarimiz va duogo‘y momolarimiz bo‘lgan. Momolarimiz kelinlarga: “Uyning gapi ostona hatlab o‘tmasin”, deya uqtirishardi. Oilada biror muammo tug‘ilsa, kattalar vazminlik bilan vaziyatni yumshatib, uni ichkarida hal qilishgan. Ular jahl ustida aytilgan so‘z ham xuddi harir parda singari donolik bilan yashirilishi kerakligini yaxshi bilgan. Oilada hal bo‘lmagan ish mahallaga, elning dunyo ko‘rgan oqillariga olib chiqilgan. Lekin duv-duv gap qilinmagan.

Bugungi kunda esa oilaning yashirin va muqaddas sirlari media makonda eng xaridorgir tovarga aylandi. Ommaviy axborot vositalari va internetdagi turli tok-shoularni kuzating: odamlar bir-birining sirini ochishdan, oilaviy muammolarni butun el ko‘z o‘ngida muhokama qilishdan uyalmay qo‘ydilar. Momolarimiz uqtirgan andisha bugun reyting va pul ilinjida toptalmoqda. Muammolar katta sahnalarda, millionlab odamlarning g‘iybati ostida muhokama qilinmoqda. Yechimdan esa darak yo‘q.

Pardaning yo‘qolishi jamiyatda ruhiy yalang‘ochlikni boshlab berdi. Biz ichki dunyomizni tashqariga shu qadar sochyapmizki, natijada oila degan tushunchaning siri qolmayapti. Bugun arzimagan sabablar bilan buzilayotgan minglab oilalar, sudma-sud yurgan yoshlar, Internetda bir-birini haqorat qilayotgan er va xotinlar, o‘zaro oqibatsizlik – mana shu fojianing achchiq mevalaridir. Chunki ularning hayotida nafs va g‘azabni jilovlaydigan o‘sha “harir chegara” endi yo‘q. Biz aynan mana shu nafis himoya qobig‘ini yo‘qotganimiz uchun ham bugun falokatli axloqiy to‘fonlar qarshisida ojiz qolyapmiz.

Muammo texnologiyada yoki Internetdan foydalanishda emas, balki me’yor va madaniyatning yo‘qolishida. Biz farzandlarimizga nafaqat ko‘chada o‘zini tutishni, balki raqamli dunyoda ham “raqamli andisha” va chegaralarga amal qilishni o‘rgatishimiz shart. Raqamli pardalarni o‘zimiz tortmasak, kelajak avlod oila muqaddasligini butkul unutib yuboradi. Bugun o‘sha harir pardalar o‘rnini hashamatli, baland beton devorlar, temir darvozalar va qulflar egalladi. Dunyo moddiy tomondan mustahkamlandi, lekin ruhan va axloqan nazokatini, xavfsizligini yo‘qotdi. Biz uylarimizni temir eshiklar bilan berkitdik, ammo shaxsiy hayotimiz eshiklarini butun dunyoga lang ochib qo‘ydik.

Biz baland devorlarni emas, qalbimizdagi o‘sha nafis pardalarni – hayo va chegara tuyg‘usini, kattalarning dono o‘gitlarini qayta tiklashimiz shart. Aks holda, bu fojia bizni milliyligimizdan butkul ayiradi.

**Yorqin INOG‘OMOV,**
**jurnalist**

ISTAK

# Orzularim



**Tengdoshlarim mashhur qo‘shiqchilar, auditoriyasi katta bloger-u vaynerlar, taniqli sportchilarni ko‘rishni istaydi. Ularning ijtimoiy tarmoqdagi sahifalarini astoydil kuzatadi. Mening orzum esa boshqacha. Aytsam, to‘g‘ri tushunasiz, deb umid qilaman. Qaniydi, jadid bobolarni o‘z ko‘zim bilan ko‘rsam, hech bo‘lmasa, bir marta ular bilan suhbatlashsam...**

Ko‘rmagan bo‘lsam ham, tasavvurimda ular menga juda yaqin. Mening ongimda ular rasmlardagi oq-qora o‘tmish kishisi yoki sun’iy intellekt jonlantirgani kabi basavlat va jiddiy shaxslar emas, avvalo, ustozlarim kabi yuzlari nurli, mehribon va faqat yaxshilik qilishni istaydigan insonlar sifatida gavdalanadi.

Jadidlar haqida o‘qiganimda, ayrimlarining nomiga o‘zgacha mehr bilan qarayman. Ulardan biri – Abdurauf Fitrat. Buxoroda tug‘ilganim uchun Fitrat bobomizni o‘zimga yaqin olaman. Oramizda bir asrdan ortiq vaqt bor. Makon bir bo‘lgani bilan bugungi Buxoro bilan burungi Buxoro o‘rtasida, albatta, katta farq bor. Fitrat bobomiz ilm va ma’rifatni xalq taraqqiyotining muhim yo‘li deb bilgan. Uning “Munozara” kabi asarlarida ta’lim, maktab va jamiyatning kelajagi haqida muhim fikrlar ilgari surilgan. Shularni o‘qib, o‘ylab qolaman: odam hayotdan norozi bo‘lib hech narsaga erishmaydi, uni o‘zgartirish uchun harakat ham qilish kerak. Agar o‘sha davrda yashaganimda, Fitrat yoki Ibrat bobolarimiz bilan uchrashganimda, ulardan nimani so‘rardim? Va bir paytning o‘zida yana savol tug‘iladi: ular mendan nimani so‘ragan bo‘lardi?

Bugun juda ko‘p imkoniyatlar eshigini ochgan davlatda yashayapman. Kitob o‘qish, chet tillarini o‘rganish, internet orqali dunyoning turli joylaridagi bilimlardan foydalanish, xalqaro olimpiadalarda qatnashish singari imkoniyatlarga egaman. Agar bugungi imkoniyatlar jadid bobolarimiz davrida bo‘lganida, ular bundan qanday foydalangan bo‘lardi? Menimcha, ular vaqtning bir daqiqasini ham bekor o‘tkazmagan bo‘lardi. Ammo keyin yana bir narsani tushunaman. Ularning davrida imkoniyatlar bugungidek ko‘p bo‘lmagan. Lekin ularning orzulari katta bo‘lgan. Balki insonning imkoniyatidan ham muhimroq narsa – uning maqsadidir. Bu fikr menga juda ta’sir qiladi. Chunki ba’zan bugungi imkoniyatlarimizni doim ham yetarlicha qadrlamaymiz.

Ba’zan xayolan ularning oldiga boraman. “Bugungi yoshlarga qanday so‘zingiz bor?” deb so‘rayman. Tasavvurimda ular menga qarab: “Imkoniyatlaringizdan foydalaning. Ko‘proq o‘qing. Izlaning. O‘z yurtingizni seving. Bilimingizni faqat o‘zingiz uchun emas, boshqalar uchun ham foydali qiling”, degandek bo‘ladilar.

Men ham o‘z oldimga katta maqsadlar qo‘yishni xohlayman. Xalqaro olimpiadalarda qatnashish menga bir narsani o‘rgatdi: dunyoda bilimga intilayotgan yoshlar ko‘p. Men ham ular orasida o‘z o‘rnimni topishim uchun yanada ko‘proq o‘qishim va izlanishim kerak.

Bu fikrlar o‘tgan o‘quv yilida, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi va “Jadid” gazetasi hamkorligida tashkil etilgan “Jadid bobomga maktub” tanloviga tayyorgarlik jarayonida tug‘ilgandi. Ammo jadidlar kitoblarini o‘qib chiqqunimcha, tanlov muddati tugab qoldi. Kelgusi yil qatnashaman, degandim, bu yozgi ta’tilda talaba aka-opalarimiz uchun tanlov bo‘ldi. Istardimki, aniqrog‘i, tengdoshlarimiz bilan istardikki, “Jadid bobomga maktub” tanlovi yana o‘tkazilsa, buyuk ma’rifatparvar ajdodlarimiz bilan yana bir bor g‘oyibona suhbat qursak.

**Roziyabegim HUSENOVA,**
**Buxoro shahridagi xususiy maktabning**
**9-sinf o‘quvchisi**

TARMOQLARDA NIMA GAP?

# SIZDA TARTIB BORMI?

**Kecha Telegramdagi “Mikrofon ko‘targan ayol” kanalidan “9 soat”ning siri nimada?” degan post kelib qoldi. O‘zbekiston rahbarining Janubiy Koreyaga rasmiy tashrifining noodatiy rakursdagi tafsilotlariga qiziqib qoldim. Uzun matnlarni o‘qishga toqatim yetmasa ham, bu safar oxirigacha bordim.**

Mana bu parchani o‘qib, o‘ylab qoldim: “Prezidentning ish dasturida tushga qadar 1 ta uchrashuv, 1 ta qabul, yana 200 kishilik O‘zbekiston-Koreya biznes forumida nutq, hujjatlarni imzolash marosimi, O‘zbekiston viloyatlarida 5 ta qo‘shma yangi loyihaga start marosimi, Koreyaning 10 ta chebol kompaniyasi (ko‘p tarmoqli ulkan oilaviy biznes) bilan tet-a-tetlar. Bu vaqtda esa yana bir zalga odamlar to‘plandi, Koreyada yashayotgan, o‘qiyotgan 50 ga yaqin vatandoshlar mahtal turibdi. Bu ishlarning boshida turish tugul, shunchaki o‘qib ko‘rsangiz ham, “ehhe” devorasiz”.

Davlat rahbarining kun tartibi shu qadar zich va puxta tuzilgan ekanki, bir kunda o‘nga yaqin tadbirda ishtirok etganini kuzatdim. Eng muhimi, har bir uchrashuv ikki mamlakat o‘rtasidagi munosabatlarda muhim rol o‘ynaydi. Ularga tayyorgarlik ko‘rish, ko‘ngildagidek o‘tkazish, muzokara olib borish odamdan hazilakam kuch-quvvat, aql-farosat va chidam talab qilmaydi.

Keyin mening kunim qanday o‘tyapti, degan savol xayolimni band qildi. Uch mahal ovqatlanish, o‘qishga borish, ishga borish, telefon titkilash – shuning o‘zi kun tartibi bo‘loladimi?

Inson fe’li ham, miyasi ham qat’iy tartibni xushlamas ekan, iloji boricha yengillik, bekorchilik istagida o‘ziga



o‘zi har xil sabablar yaratib olar ekan. “Izlagan imkon topar, izlamagan bahona”, “Dangasaga ish aytsang, senga aql o‘rgatar”, degan gaplar bejiz aytilmagan. Lekin irodasi kuchli insonlar yugurik vaqtdan unumli foydalanish sirini topgan. Ko‘pincha buyuk arboblar, olimlar, sarkardalar yo ishbilarmonlarni kuzatib, ularning ishlarini ko‘rib, shularning ham vaqti 24 soatmikin, deb o‘ylab qolaman.

Buning bitta siri bor ekan – kun tartibini oqilona tuzish va unga og‘ishmay amal qilish. Yo‘qsa, Abu Rayhon Beruniy 75 yillik umrida 152 ta ilmiy asar, Jyul Vern 77 yoshigacha 66 ta roman yoza olarmidi? Yoki agar hayot tarzini qat’iy yo‘lga qo‘yib olmasa, Movarounnahrni qirq yil idora qilgan Mirzo Ulug‘bek qay vaqt 1018 yulduzni kuzatib, jadval tuzgan; yoshlik yillaridan bosh vazir va hokim bo‘lib, el-yurt xizmatida bo‘lgan Alisher Navoiy qachon 52 ming misradan iborat “Xamsa” va 2600 g‘azaldan tuzilgan “Chor devon”ga tartib bergan?

Uzoqqa bormaylik, Samarqandda 46-Butunjahon shaxmat olimpiadasi davom etyapti. O‘zbekistonning iftixoriga aylangan Javohir Sindorov yoki Nodirbek Abdusattorovning intervyulari, yaqinlari bilan suhbatlarini internetda ko‘rib, shunday xulosaga kelganman: ular hayotini sport, ta’lim, oila, dam olish kabi eng muhim masalalarga bo‘lib olgan. Boshqa ortiqcha, foydasiz ishlarni yig‘ishtirib qo‘ygan.

Men ham yaqingacha o‘qishim kechki bo‘limda, kunduzi ishlayman, shuning o‘zi yetadi, deb yurardim. Ammo uch yilda ham soham bo‘yicha arzirli natijaga erisholmadim, ishim ham tez-tez o‘zgarib turdi. Keyin tartibsiz harakat qilayotganimni, beqarorlik va dangasalikka chalinganimni tushunib qoldim. Oxiri, o‘zimga kun tartibi tuzib oldim: endi o‘qishga ham, ishga ham, amaliyot o‘tashga ham, til o‘rganishga ham ulguryapman.

Bugun vaqtni shamollarga sovurib yuboradigan ermaklar ko‘payib ketdi. Umr esa kutib turmaydi. Siz kun tartibingizni qanday tashkil qilasiz?

**Husniddin MUHAMMADMUROD,**
**talaba**
*Facebook*

TILBILIM

## Mahmud Koshg‘ariyning

# ESKI ZONTIGI



**“Zontik” gollandcha so‘z bo‘lib, “quyoshdan himoyalanish vositasi” degan ma’noni anglatadi. Xo‘sh, “zontik” so‘zining sof turkiychasi bormi? “Soyabon” deysizmi? Yo‘q, “soyabon” forscha so‘z.**

Toki dunyoda quyosh issig‘i va yog‘ingarchilik bor ekan, demak, hamma joyda ulardan himoyalanish vositasi bo‘lgan. Hamma joyda shunday vosita ishlatilgan ekan, unda hamma tillarda bu narsani ifodalaydigan so‘z ham bo‘lgan. Faqat bu so‘zlar unutilgan bo‘lishi mumkin.

Mahmud Koshg‘ariy “Devoni lug‘atit-turk”da *“jaḳalduruq”* so‘zini yomg‘irdan, quyosh issig‘idan boshni saqlash uchun vosita ekanligini izohlab ketgan. *Yangalduruq* namatdan tikilgan ekan. Bu narsa yomg‘irpo‘sh yo oddiy yopinchiq emas. Chunki yopinchiq qadimgi turkiy tilda *“jug‘urqan”* so‘zi bilan ifodalangan. Koshg‘ariy *“Ol aḳar yug‘urqan esho‘di”* – *“U unga yopinchiq yopdi”* degan misolni keltirib o‘tgan.

Qozoqlarda zontikni *“qo‘lchodir”* deyishar ekan.

**Eshqobil SHUKUR**

“Jadid” gazetasi tahririyati jamoasi hamda muassislari O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zolari Nosirjon Jo‘rayev va Dilrabo Mingboyevaga

o‘g‘li **Shohidbek JAMOLIDDINOV**ning

vafoti munosabati bilan hamdardlik bildiradi.

Jadid
adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

**Bosh muharrir:**
Iqbol MIRZO

Muallif fikri tahririyat fikri bilan mos kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Adadi – 18 476
Shundan:
Kirill yozuvida – 6 906
Lotin yozuvida – 11 570
Media kuzatuvchilar – 91 527
Buyurtma: G – 940
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Nashr ko‘rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 6

**Mas’ul kotib:** Shuhrat Azizov
**Navbatchi muharrir:**
Otabek Bakirov

**Sahifalovchilar:**
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva



**Manzilimiz:**
Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko‘chasi, 69-uy
**Telefonlar:**
Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (97) 745-03-69
jadidgzt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

**“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.**

**Bosmaxona manzili:**
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 20:30

Sotuvda narxi erkin.

www.jadid.uz

*Muassislar:*

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI
RESPUBLIKA MA’NAVIYAT VA MA’RIFAT MARKAZI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
MILLIY MASS-MEDIANI QO‘LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAT FONDI
“SHAHIDLAR XOTIRASI” JAMOAT FONDI